

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИК ИНСТИТУТИ

ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ ВА МАҲСУЛОТЛАРНИ
ҚАЙТА ИШЛАШ ФАКУЛЬТЕТИ

ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИК МАШИНАЛАРИ, ФОЙДАЛАНИШ ва ТАЪМИРЛАШ
кафедраси

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ БҮЙИЧА

Т У Ш И Н Т И Р И Ш Х А Т И

Битирув малакавий ишининг мавзуси: *Самарқанд вилояти Оқдарё тумани Даҳбит фермерлаш уюшмасида нефт маҳсулотларига бўлган талабни режалаштириши.*

Битирувчи 42-гурӯҳ талабаси

Пўлатов Шахбоз

Кафедра мудири

доц. З.А. Абдуғаниев

БМИ раҳбари

катта ўқит. Ортиқов А.,

Факультет декани

Б.У. Нурмиҳамедов

Самарқанд – 2013

Mavzu: Samarqand viloyati Oqdaryo tumani “Dahbed” fermerlar uyushmasida neft maxsulotlariga bo’lgan talabni rejalashtirish

I.	KIRISH.	4...11
II.	TEXNOLOGIK QISM	
1.	Mavzuning dolzarbligi.....	11
2.	Samarqand viloyati Oqdaryo tumani «Dahbed» fermerlar uyushmasining tasnifi	12...17
3.	Texnalogik kartanering hisobi.....	17...24
4.	Mashinalardan foydalanish grafigini qurish.....	25
5.	Qishloq xo'jaligi mashinalariga bo'lgan talabni asoslash.....	26...27
6.	Har bir rusumdagagi mashinaning texnologik kartadagi ishlarni bajarishda sarflagan yoqilg'i moylash materiallari.....	28
7.	Yil davomida yoqilg'ini keltirish rejasi.....	29
III.	KONSTRUKTIV QISM	
1.	Qator orasidagi kessaklarni maydalash moslamasi	30-34
2.	Tishni egilishga bo'lgan mustahkamlik sharti.....	35-36
3.	Barmoqni qirqlishga hisobi	36-37
IV.	ATROF MUHIT VA MEHNAT MUHOFAZASI QISMI.	
1.	MMTP xududida mehnatni muhfaza qilinishi.....	38-40
2.	Tabiatni mo'hofaza qilish va ekologiya.....	40-41
3.	Traktor-dalachilik ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi.....	42-43
4.	Traktorda transport ishlarini bajarishda rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qidalar.....	44-47
5.	Mashinalarga texnikaviy xizmat ko'rsatish, remont qilish va saqlashda xavfsizlik texnikasi.....	47-50
V.	IQTISODIY KO'RSATGICHLAR QISMI.	
1.	Iqtisodiy ko'rsatgichlar hisobi.....	51-57
	XULOSA VA TAKLIFLAR	
1.	Xulosa va takliflar.....	58-61
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	
		62-53

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

ANNOTASIYa

Ushbu Bitiruv malakaviy ishida Samarqand viloyati Oqdaryo tumani “Dahbed” MMTP si xududida qishloq xo’jalik maxsulotlari yetishtirish va yig’ishtirib olishda xarajatlarni eng kam bo’lishiga erishish uchun neft maxsulotlariga bo’lgan talabni aniqlash ishi amalga oshirilgan.

Buni amalga oshirish uchun namunaviy texnalogik kartadan foydalangan holda operasion texnalogik karta tuzilib u asosda har bir rusumdagи traktor, avtomobil va qishloq xo’jalik mashinalari uchun mashinalardan foydalanish grafigi qurildi va ushbu grafik asosida operasion texnalogik kartada ko’rsatilgan ishlarni agrotexnik muddatlarda amalga oshirish uchun zarur bo’ladigan tegishli rusumdagи traktor, avtomobil va qishloq xo’jalik mashinalarining soni va ulardan foydalanish uchun yoqilg’i va moylash materiallariga bo’lgan ehtiyojni aniqlash amalga oshirilgan

Konstruktiv qator orasini yumshatish va kessaklarni maydalash moslamasining umumiyligi ko’rinishi, o’lchami va ushbu moslama detallarining umumiyligi ko’rinishi, o’lchamlari hamda texnik talablar keltirilgan, hamda xo’jalikda atrof muhit va mehnatni muhofaza qilinishining holati yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining oxirgi bo’limida amalga oshirilgan hisoblashlar asosida Samarqand viloyati Oqdaryo tumani “Dahbed” MMTP si xududida qishloq xo’jalik maxsulotlari yetishtirish va yig’ishtirib olishda neft maxsulotlariga bo’lgan ehtiyoj aniqlangandan so’ng yillik iqtisodiy ko’rsatgichlar hisobi keltirilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasida quyidagilarga to'xtaldi:

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozisiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'limgan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

2012 yilda qurilishi nihoyasiga yetkazilgan eng yirik obyektlar haqida gapirganda, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida Yaponiyaning "Misubisi" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 megavolt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasining ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim.

Avtomobil sanoatida Germaniyaning dunyoga mashhur "MAN" kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand viloyatida yiliga 3 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi kompleksni bunyod etishning ikkinchi bosqichi yakunlandi.

Ushbu korxonada jahondagi eng yuksak standartlar asosida jihozlangan yuqori

Узг	Варак	Хужжат №	Имзо	Сана	001.051.000. BMI. 2013 y.		
Бажарди	Pulatov Sh				Адаб	Варак	Вараклар
Рахбар	Ortiqov A						
М.назорат							
Т.назорат							
Тасдиклади	Абдуганиев З.						
Kirish					Sam QXI "QXM va MQI" f-ti IV-bosquch		

texnologik ishlab chiqarish tashkil etildi. Aytish kerakki, katta hajmdagi yuklarni tashiydigan eng zamonaviy avtomobillar ishlab chiqaradigan mazkur korxona nafaqat mamlakatimiz ehtiyojini qoplaydi, balki bu mashinalarni eksport qilishni ham ta'minlaydi.

Yana bir yirik loyiha – umumiyligi 250 million dollardan ortiq bo'lgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbatini qurish ishlari davom ettirilmoqda. Bu boradagi ishlar yakuniga yetgach, korxonada yiliga 600 ming tonnagacha kaliyli o'g'it ishlab chiqarish imkonini paydo bo'ladi va bu mahsulotning 350 ming tonnadan ko'prog'i eksport qilinadi.

2012 yilda Janubiy Afrikaning "Sosol" kompaniyasi va Malayziyaning "Petronas" korporasiyasi bilan hamkorlikda qiymati 4 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan, tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha katta istiqbolga ega bo'lgan yirik loyihami amalga oshirish boshlandi.

Ushbu loyiha asosida barpo etiladigan zavod dunyodagi sanoqli korxonalardan biri bo'lib, u sintetik suyuq yoqilg'i – suyultirilgan gaz, aviakerosin va "premium klass" toifasidagi, ya'ni yevro-4 standartidan kam bo'limgan dizel yoqilg'isi ishlab chiqaradi.

O'tgan 2012 yilda mamlakatimiz agrar sektorining deyarli barcha tarmoqlarida ulkan yutuq va natijalar qo'lga kiritildi.

Albatta, 2012 yilda ham, so'nggi yillardagi kabi, yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lgani, bahorning kech kelgani va namgarchilikning yuqori bo'lgani, yoz faslida havo haroratining haddan ziyod oshib ketgani qishloq xo'jalik ishlarini amalga oshirishda jiddiy muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Shunga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil yetishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi.

Bularning barchasi, avvalambor, dehqonlarimiz, fermer va mexanizatorlarimiz, qishloq xo'jaligi mutaxassislarining o'zini ayamasdan qilgan fidokorona mehnati, boy

Узг	Варак	№ хужожат	Имзо	Сана	Варак

tajribasi va o'z ishiga bo'lgan sadoqatining amaliy natijasidir. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu yutuqlar barcha resurs va imkoniyatlarimizni to'la safarbar eta olganimizning natijasidir.

Bugun mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga ularning mardligi va matonati, mamlakatimizning taraqqiyoti va ravnaqiga qo'shayotgan ulkan hissasi uchun o'zimning chuqrur hurmatim va samimiyl minnatdorligimni bildirish menga katta mammuniyat bag'ishlaydi.

Mamlakatimizda, xorijiy davlatlar tajribasini chuqrur o'rgangan holda, qishloq xo'jaligini iqtisodiy isloh etish bo'yicha o'ta muhim chora-tadbirlarning amalgamashirilayotgani, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni tug'dirib berish bunday yuksak natijalarni qo'lga kiritishda hal qiluvchi omil bo'lmoqda, desam, hyech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Kun sayin mustahkamlanib, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati O'zbekistonda o'zini to'la oqladi va bunga hyech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, desam, o'ylaymanki, barchamizning umumiyl fikrimizni ifoda etgan bo'laman.

Fermerlarimizning ongu tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan-yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi – odamlarimizning ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgarmoqda, bebahoh boyligimiz bo'lgan yer va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlarini sezilarli ravishda kengaytirdi.

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

Shu bilan birga, tan olish kerakki, fermerlik harakatining Fermer xo'jaliklari uyushmasi shaklidagi tashkiliy tuzilmasi qishloq xo'jaligini isloh etish va sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fermerlar oldida turgan vazifalarni hal etish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.

Fermerlik o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida Fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimmi, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga yer uchastkalarini uzoq muddatga ijaraga berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashlarining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas.

Mazkur kengashlarning asosiy vazifasi davlat va xo'jalik boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyat organlari bilan munosabatlar bo'ladimi, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish bo'ladimi, shuningdek, sudlarda ishlarni ko'rib chiqish bo'ladimi – hamma yerda fermerlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Bir so'z bilan aytganda, fermerlar kengashlari fermerlik harakatining o'zagi, yo'naltiruvchi kuchi bo'lishi, uni qishloqni rivojlantirish va shu asnoda qishloq aholisi farovonligini oshirishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylantirishi lozim.

O'zbekistonni 2013 yilda iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilar ekanmiz, biz, avvalo, o'tgan yillarda iqtisodiyotimizda erishilgan marralar, istiqbolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, shuningdek, jahon bozoridagi real va kutilayotgan, prognoz qilinayotgan holatdan kelib chiqamiz.

Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushi 53 foizgacha o'sishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda.

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

Qishloq xo'jaligida paxta va g'allaning barqaror hajmini saqlagan holda, kartoshkachilik, sabzavotchilik, uzumchilik va chorvachilikni jadal rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

2013 yil va yaqin keljakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lамини kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish markaziy o'rın tutishi darkor.

Bu borada 2013 yil uchun ishlab chiqilgan va 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko'zda tutadigan Investisiya dasturi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan 13 milliard dollarning 75 foizini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag'lar, qolgan qismini jalg etiladigan xorijiy investisiyalar tashkil etadi.

Ishlab chiqarish qurilishi uchun mo'ljallanayotgan jami investisiyalarning qariyb to'rtdan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizasiya qilish uchun yo'naltirishga to'g'ri kelmoqda.

Investisiya dasturini amalga oshirishda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tobora muhim o'rın tutmoqda. 2013 yilda faqat Jamg'arma mablag'lari hisobidan qiymati 780 million dollarlik 34 tadan ortiq muhim loyiha, birinchi navbatda, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda barpo etilayotgan obyektlarni moliyalashtirish rejalashtirilmoqda.

2013 yilda asosiy maqsadimiz – qurilishi boshlangan va mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga xizmat qiladigan obyektlarni barpo etish sur'atlarining pasayishiga yo'l qo'ymaslik prinsipial ahamiyatga ega. Joriy yilda 115 ta muhim obyektni ishga tushirish ko'zda tutilmoqda.

Hamkorlarimiz bilan kelishilgan yangi obyektlar qurilishini boshlashni tezlashtirish zarur. Shular qatorida Qo'ng'irot soda zavodining ikkinchi navbatini, "Rezinotexnika" ochiq aksiyadorlik jamiyati negizida avtomobil shinalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bir qancha qo'shma korxonalarning quvvatini oshirish lozim.

2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'limgan darajada oshirish, 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda.

Aholimizning tinch-omon hayotini ta'minlash, uning farovonligini oshirish, iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish, O'zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va pozisiyasini yuksaltirish, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha o'z oldimizga qo'yayotgan maqsadlar, miqyosi va ko'lamiga ko'ra, xalqimizning ezgu orzu-umidlari bilan hamohangdir.

Shuni alohida ta'kidlab aytmoqchiman, 2013 yilda va undan keyingi yillarda dasturiy maqsadlarimizni amalga oshirish uchun o'z salohiyatimiz, barcha imkoniyat va kuch-g'ayratimizni safarbar etish bugungi kundagi eng katta va mas'uliyatli vazifamizdir.

Paxtachilikda ishlarni mexanizasiyalashtirish darajasini oshirishda va mehnat unumdorligining ko'tarishda chigitni aniq miqdorda ekish muhim ahamiyatga egadir, chunki bunda qo'lida yaganalash kabi sermehnat operasiyaga hojat qolmaydi, chigit tejaladi.

Hozir bir o'tishda turli prosesslarni bajarish uchun qo'shma va universal agregatlar yaratishga katta e'tibor berilmoqda, qudratlirok traktorlar va shunga muvofikqular uchun qamrash kengligi katta bo'lgan, shuningdek, yuqoriroq tezliklarda (9—15 mk/soat) ishlay oladigan mashinalar yaratilmokda.

Yuqori ko'rsatkichlarga erishishda mehnatni va ishlab chiqarishni ilmiy tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Butun mamlakatda bo'lganidek, respublikamiz qishloq xo'jaligini texnika bilan qayta qurollantirish jarayonida xo'jaliklar yiriklashtirilib, ularni ixtisoslashtirish darjasini ko'tarildi. Ko'p yillik tajribaning ko'rsatishicha, paxtakor fermer xo'jaliklarida asosiy tarmok, bo'l mish Paxtachilik hajmi, shuningdek, zamonaviy qishloq xo'jalik texnikasi, SUV va mehnat resurslaridan yuqori samarali foydalanish bo'yicha qo'yilgan vazifalarga to'liq javob beradi.

Qishloq xo'jaligining industrial asosiga o'tkazilishi qishloq aholisining ijtimoiy, sinfiy va kasbiy strukturasiga, uning mehnati xarakteriga chuqur o'zgarishlar kiritadi,

Узг	Варак	№ хужожат	Имзо	Сана	Варак

ma'lumot va madaniyat darajasining yuksalishiga, qishloq xo'jalik mehnatining sanoat mehnatiga aylanishiga taqqiyotini tezlatish, ishlab chiqarishga fan va texnika yutuqlarini, ilgorlar tajribasini joriy etish ishida hali kamchiliklar va ishga solinmagan katta rezervlar mavjud.

Tuproqni ekishga tayyorlash va ekinlarni parvarish qilishda ko'p qo'l mehnati sarflanadi, g'o'zani va qishloq xo'jalik ekinlarini vegetasion sug'orish ishlari deyarli butunlay qo'lida bajariladi. Paxta terimini mexanizasiyalashtirish darjasи yuqori bo'lishiga qaramay, uni yerdan mexanizmlar bilan terib olish masalasi hanuz yetaricha hal etilmagan, bu esa hosilni mashinada terib olish samaradorligini keskin pasaytiradi. Sabab shundaki, ko'pgina xo'jaliklarida mehnat aniq sistema bo'yicha tashkil etilmagan, natijada mexanizasiya vositalari va ishchi resurslaridan to'lik va har vaqt maqsadga muvofik. foydalanimaydi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun hisoblarga va ilg'or xo'jaliklar tajribasiga asoslangan ishlab chiqarish prosesslarining to'g'ri texnologiyasini, barcha yangilik va ilgor usullarni keng joriy etish zarur. Ishlarning aniq texnalogik intizomga rioya qilib, texnalogik kartalar asosida bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish kerak.

Mashina-traktor parkining davomli va yuqori unumli ishlashi, uni yaxshi ahvolda saqlash hamda paxtachilikda mexanizasiyalashtirilgan ishlarning tannarxini pasaytirish ko'p jihatdan paxtachilikda ishlatiladigan traktorlarni diagnozlash sifati va davomatiga ham bog'lidir. Diagnozlash vaqtini qisqartirish uchun operasiyalar tartibiga qat'iy rioya qilish, maqsadga muvofoq planlashtirish va ularni ijrochilar o'rtasida taqsimlash zarur, bu narsa texnikaviy xizmat ko'rsatishda ayniqla muhimdir. Texnikavii xizmat o'tkazishni malakali kadrlar bilan mustahkamlash, texnikaning texnikaviy holatlар va saqlanishiga, mashina va asbob uskunalarni remont qilish va texnikaviy xizmat ko'rsatish sifatiga davlat nazoratini kuchaytirish, xo'jalik ehtiyyot qismlar va remont materiallari bilan ta'minlashni yaxshilash zarur;

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz bitiruv malkaviy ishida «Samarqand viloyati Oqdaryo tumani "Dahbed" fermerlar uyushmasida neft maxsulotlariga bo'lган talabni rejalashtirish» mavzusini tanlab oldik.

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

II. TEXNOLOGIK QISM

II.1. MAVZUNING DOLZARBLIGI

Respublikamiz dalalarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini shu jumladan paxta va g'alla yetishtirish va yig'ishtirib olishda mahsulot tannarxini kam bo'lishiga erishishning asosiy omillaridan biri foydalaniladigan texnikalarga sarf bo'ladigan xarajatlarni kamaytirishdir.

Bu xarajatlarni kamaytirish yo'llaridan biri yoqilg'i sarfi kam, ish unumдорligi yuqori va tannarxi arzon bo'lgan texnikalardan foydalangan holda mashina traktor parkini maqbul tarkibini aniqlashdir.

Operasin texnalogik kartada ko'rsatilgan tegishli jarayonlar agrotexnik muddatlarda bajarilishini ta'minlash. Buning uchun neft maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlab uning zahirasini oldindan tayyorlashni amalga oshirish zarur. Chunki neft maxsulotlari o'z vaqtida yetkazib berilmasa agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmaydi, oqibatda qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirib, yig'ishtirib olishdagi xarajatlar oshadi.

Bundan tashqari, xo'jalikning mashina-traktor parkidan foydalanish samaradorligini oshirish, mashina-traktor agregatlari ishining smenaligini yaxshilash, mexanizatorlar mehnatini tashkil etish formalari va usullarini takomillashtirish, traktorlar va terim texnikasini guruxlab ishlatishdan keng foydalanish, kompleks terim-transport otryadlari yaratish va undan foydalanish operativligini ko'tarish, xo'jalik ichida aloqa va dispetcherlik xizmatini joriy etish, mashina-traktor parki ishini planlashtirish va hisobga olish usullarini takomillashtirish zarur.

Узг	Варак	Хўжжат №	Имзо	Сана
Бажарди	Pulatov Sh			
Рахбар	Ortiqov A			
М.назорат				
Т.назорат				
Тасдиклади	Абдуганиев З.			

001.051.000. BMI. 2013 у.

Адаб	Варак	Вараклар
Texnologik qisim		Sam QXI "QXM va MQI" f-ti IV-bosquch

II.2. SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMANI «DAHBED» FERMERLAR UYUShMASINIG TASNIFI.

Oqdaryo tumanidai «Dahbed» jamoa xo'jaligi zarar bilan ishlayotganligi tufayli 2002 yil da xo'jalikdagi ekin maydonalari tendir asosida femerlarga bo'lib berildi.

Ushbu xo'jalikning tuman markazidan uzoqligi 18 km. Viloyat markazidan uzoqligi 15 km. Temir yo'ldan uzoqligi esa 15,5 km.

Femerlar uyushmasidagi jami sug'oriladigan ekin maydoni 1292,2 hektar bo'lib shundan 2012 yilda paxta uchun 540 ga, g'alla uchun 565,9 ga bog' uchun 169,6 ga, sabzavot uchun 14 ga. Tokzor uchun 7,7 ga, tutzor uchun 5 ga ekin maydonlari ajratilgan.

2012 yilda 1 hektar maydondan olingan hosil miqdori 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Ekin turi	Paxta	G'alla	Poliz	Kartoshka	Uzum	Meva
Hosildorlik s/ga	25	34	350	360	80	70

2013 yilda yetishtirish uchun rejalahtirilgan ekin maydonlaridan olinadigan hosil rejasiga 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvalda

Ekin turi	Paxta	G'alla	Poliz	Kartoshka	Uzum	Meva
Hosildorlik s/ga	24,11	32,4	350	350	70	70

Ushbu xo'jalikning ekin maydonlari asosan paxta va g'alla yetishtirishga yo'naltirilgan. Qo'shimcha ravishda sabzavot ekinlaridan pamidor, katoshka, poliz ekinlaridan, qovun, tarvuz, bodiring, kadi kabi ekinlar, mevalardan esa olma, uzim o'rik, shaftoli, olxo'ri, nok kabilalar yetishtiriladi.

Xududdagi dalalar 25 ta fermerga tendir asosida taqsimlab berilgan. Ushbu fermerlarga xizmat ko'rsatish uchun bitta muqobil mashina-traktor parki (MMTP) mavjud va ushbu xududda yoqilg'i va organik o'g'itlarni tarqatish shaxobchalari ham tashkil qilingan.

Xudud fermerlariga tumandagi markaziy muqobil mashina-parki ham talab asosida xizmat ko'rsatadi.

«Dahbed» fermerlar uyushmasidagi fermer xo'jaliklari bo'yicha 2012 yida ekishga rejalahtirilgan sabzavot maydoni va kutiladigan hosil

3-jadval

Nº	Fermer xo'jaligi nomi	Sabzavot mydoni, ga	Hosildorlik s/ga	Yalpi xosil, tonna
1	Qosimota	2,0	350	10,0
2	Dahbed Oltin Baliq	12,0	350	420,0
3	Jami	14	350	490

Узг	Варак	№ хуяжат	Имзо	Сана	Варак

«Dahbed» fermerlar uyushmasidagi fermer xo'jaliklari bo'yicha 2012 yida ekishga
rejalashtirilgan paxta maydoni va kutiladigan hosil

4-jadval

No	Fermer xo'jaligi nomi	Paxta maydoni, ga	Hosildorlik	10% qo'shimcha	Yalpi hosil, tonna
	Dahbed massivi	1	1	1	1
1	Fayziobod	20,0	22,5	4,2	46,6
2	Qosimota	3,5	22,5	0,8	8,3
3	Mevali sabr	3,2	22,5	0,7	7,9
4	G'ujumsoy-Oqdaryo	46,0	23,0	10,6	116,4
5	Durdona	27,5	23,0	6,3	69,2
6	Mo'minobod	46,7	23,0	10,7	117,7
7	Iqbol	26,2	21,0	5,5	60,5
8	Durmon Archasi		23,0		
9	BOSS-GDD	88,8	23,0	20,4	224,3
10	Xasanqirq	7,8	23,0	1,8	19,7
11	Sezgir Mustahkam	28,2	22,0	5,3	58,6
12	Oqdaryo Mirishkor	70,7	23,0	16,3	178,9
13	Dahbed Nurli Maskan	37,7	23,0	8,0	88,3
14	Dahbed Mo'l Hosili	21,2	23,0	4,9	53,6
15	Dahbed Yog'dusi	26,5	23,0	6,1	67,0
16	Navro'z	2,0	22,0	0,4	4,8
17	Usmon Xo'roz	6,6	22,0	1,5	16,0
18	Fozilov Sobir bog'i	6,2	22,0	1,4	15,0
19	Rancho- Dahbed-Chorju	40,0	23,0	6,9	75,9
20	Oqdaryo Nurzamin Sahovati	10,6	22,0	2,3	25,7
21	Nuriddin Sayfiddinov Jaynar bog'i	6,0	22,0	1,3	14,5
22	Akmal Akbar olmazori	6,2	22,0	1,4	15,0
23	Xomidbek bog'i	3,8	22,0	0,8	9,2
24	Dahbed Sevinch bog'i	2,0	22,0	0,4	4,4
25	Dahbed Oltin Baliq	5,0	19,0	1,0	10,5
	Jami	542,4	22,7	118,9	1308,0

Узг	Варак	№ хужожат	Имзо	Сана	Варак

«Dahbed» fermerlar uyushmasidagi fermer xo'jaliklari bo'yicha 2012 yida ekishga
rejalashtirilgan boshqoli don ekinlari maydoni va kutiladigan hosil

5-jadval

Nº	Fermer xo'jaligi nomi	Suvli ekin yer, ga	Jami kuzgi boshqoli don maydoni, ga	1 ga hosil s/ga	10% Qo'shimcha, tonna	Jami, tonna
1	Fayziobod	22,4	13,4	29,7	3,7	40,9
2	G'ujumsoy-Oqdaryo	158	65,6	27,4	9,6	206,3
3	Durdona	54,4	27,9	30,7	8,6	94,2
4	Mo'minobod	98,2	55,0	30,7	16,9	185,7
5	Xasanqirq	12,8	5,0	29,7	1,5	16,3
6	Iqbol	48,9	35,0	30,7	3,9	110,1
7	BOSS-GDD	166,8	79,0	30,7	24,2	266,7
8	Sezgir Mustahkam	50,8	26,6	27,7	7,4	81,1
9	Dahbed Nurli Maskan	78,7	40,0	29,7	11,9	130,6
10	Dahbed Mo'l Hosili	31,2	10,0	29,7	3,0	32,7
11	Rancho- Dahbed-Chorju	92,3	35,0	27,7	4,2	112,7
12	Dahbed Yog'dusi	51,5	25,0	29,7	7,4	80,9
13	Oqdaryo Nurzamin Sahovati	48,0	37,4	27,5	4,8	119,6
14	Oqdaryo Mirishkor	146,0	73,3	29,7	21,8	239,4
15	Dahbed Barakali hosil	39,4	35,7	27,7	9,9	108,7
	Jami	1099	563,5	29,3	138,6	1826

Узг	Варак	№ хужожат	Имзо	Сана	Варак

«Dahbed» fermerlar uyushmasidagi fermer xo'jaliklari bo'yicha 2012 yidagi bog'
maydoni va kutiladigan hosil

6-jadval

Nº	Fermer xo'jaligi nomi	Bog' maydoni, ga	Jami ishlab chiqarish, tonna	Uzum maydoni, ga	Ishab chiqarish, tonna
1	Fayziobod	35,8	250,6		
2	Qosimota	4,6	32,2		
3	Mevali sabr	9,8	68,6	1,3	9,1
4	G'ujumsoy-Oqdaryo	15,0	105,4		
5	Durdona	1,2	8,4		
6	Mo'minobod	10,0	69,6		
7	BOSS-GDD	1,0	7,0	0,2	1,4
8	Xasanqirq	5,0	35,0		
9	Sezgir Mustahkam			1,0	7,0
10	Dahbed Nurli Maskan	3,9	27,3		
11	Navro'z	4,0	28,0		
12	Paxtaobod Ubaydulla Shoxrux bog'i	12,5	87,4		
13	Fozilov Sobir bog'i	2,3	16,1		
14	Dahbed Sevinch bog'i	6,6	46,3		
15	Xomidbek bog'i	5,0	35,0		
16	Rancho- Dahbed- Chorju	3,5	24,5		
17	Oqdaryo Nurzamin Sahovati	3,9	27,3		
18	Oqdaryo Mirishkor	7,9	55,3	1,0	7,0
19	Akmal Akbar Dahbed Bog'i	9,5	66,4	4,2	29,4
20	Umarov Solijon	11,3	79,1		
21	Nigina Jasmina Dahbed Go'zallari	11,8	82,7		
	Jami	164,6	1152,1	7,7	53,9

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

«Dahbed» fermerlar uyushmasi bo'yicha mavjud traktor va qishloq xo'jalik mashinalari

7-jadval

№	Traktorlar rusumi	Mavjud, dona
1	TTZ-60. 11	4
2	TTZ-80. 11	5
3	MTZ-80X	5
4	VT-150	2
5	T-4A-II	1
6	T28X4M	2
7	MX-135	1
Avtomobil	ZIL-4331	-
	Qishloq xo'jalik mashinasi rusmi	Mavjud, dona
1	PN-4-35	1
2	PGX-0,5	1
3	KZU-0,3	1
4	ROU-6	2
5	RMG-0,7	2
6	OVX-600	2
7	GN-4A	1
8	2PTS-4-793	8
9	GX-4A	1
10	PPA-3,1	-
11	MV-6A	-
12	SMX-4	6
13	MVX-5,4	-
14	KXU-4	9
15	KBN-0,35	-
16	KV-3,6A	2
17	SZ-3,6A	-
18	Buldozer	1
19	BZTS-1	30

Узг	Варак	№ хужоқат	Имзо	Сана	Варак

«Dahbed» fermerlar uyushmasi xududi shimoldan Payariq tumani «Zarafshon» fermerlar uyushmasi, sharqdan «Rofi Hamroyev» fermerlar uyushmasi bilan, janubdan, Samarqand tumani Haqiqat fermerlar uyushmasi, G'arbdan esa «Baraka» fermerlar uyushmasi bilan chegaradosh

Tuprog'i bo'z tuproq o'rta havo harorati yozda 28-38°S qishda -4-12°S

Yerlarni sug'orishda Shaxob kanalidan keladigan suvdan foydalanadi.

MMTP xududi bo'yicha 2012 yilda g'alla, paxta, meva, sabzavot yetishtirish va yig'ishtirib olishda yoqilg'i moylash materiallariga ketgan xarajatlar 436025000 so'm, ish haqqi uchun ketgan xarajat 82640000 so'm, traktorlarga texnik servis xizmat ko'rsatish uchun ketgan xarajat 104185000 so'm. Traktorlarni kapital ta'mirlash uchun ketgan xarajat 64644000 so'mni tashkil etgan.

Texnalogik kartaga mos kelgan ishlarni texnikalar bilan bajarishda: paxta yetishtirish va yig'ishtirib olishda mehnat sarfi 30158 kishi soat. G'alla yetishtirish va yig'ishtirib olishda mehnat sarfi 14392 kishi soat. Pamidor yetishtirish va yig'ishtirib olishda mehnat sarfi 298 kishi soat. Meva yetishtirish va yig'ishtirib olishda mehnat sarfi 3560 kishi soat sarflangan.

Tut bargini tashishda mehnat sarfi 350 kishi soat bo'lgan.

Texnikalar bilan bajariladigan ishlarni amalga oshirishda jami mehnat sarfi 48758 kishi soat.

II. 3. TEXNALOGIK KARTANING HISOBI

Texnalogik kartani tuzish uchun paxta va g'alla yetishtirish va yig'ishtirib olishda foydalanish uchun tuzilgan Namunaviy texnalogik kartadan foydalaniladi.

Texnalogik kartaning 2-ustunida bajariladigan ishlarning tartib raqamlari va nomlari keltirilgan, 3- ustunida esa sifat qo'rsatgichi, 4-o'lchov birligi, 5-ustunida ishni badarilish muddati, 6-ustunda xizmat ko'rsatuvchilar soni, 7-ustunda ish kuni davomiyligi, 8- ustundatraktor rusumi, 9- ustundakishloq xo'jalik mashinasining rusumi, 10- ustunda agrtexnik tadbir bajariladigan maydon foyiz xisobida, 11 ustunda fizik birlikdagi ish hajmi keltirilgan.

Fizik birliklardagi ish hajmi quyidagicha aniqlanadi.

a) Agar ishning o'lchov birligi gektarda bo'lsa:

$$U_{\delta} = F \frac{\alpha}{100}; \text{ ga} ;$$

bu yerda U_f - ekin maydoni yuzasi, ga (1105 ga)

α - agrotexnika bajariladigan maydon, foiz hisobida (10-ustun)

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun

$$U_{\delta} = F \frac{\alpha}{100} = 1292,2 \cdot \frac{26,47}{100} = 342,4; \text{ ga}$$

b) Agar ishning o'lchov birligi tonna, m^3 , km

$$U_{\delta} = F \frac{\alpha}{100} \beta; \quad t, m^3, km ;$$

bu yerda β - ishning sifat ko'rsatkichi, (3 ustun).

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

Ochiq usulda chigit ekish uchun urug'lik chigitni tashib keltirish,

$$U_{\delta} = F \frac{\alpha}{100} \beta = 1292,2 \cdot \frac{41,97}{100} \cdot 0,26 = 141; \text{ tonna}$$

12-utun. Agregatning soatlik ish unumdorligi, $W_{\tilde{n}\tilde{i}\tilde{a}\tilde{o}}$,

13-ustun. Agregatning smenalik ish unumdorligi, $W_{\tilde{n}\tilde{i}}$,

14-ustun. . Agregatning kunlik ish unumdorligi, $W_{\tilde{e}\tilde{o}\tilde{i}}$,

15 ustun. Ish kunlari soni, $D_{\tilde{e}\tilde{o}}$. Ishning bajarilish muddatiga asosan ob- havo sharoitini hisobga olgan holda tanlanadi.

16-ustun.Bir aggregatning bir mavsumda bajaradigan ishi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$W_a = W_{coam} \cdot T_{dn} \cdot D_{uu}$$

bu yerda W_{soat} –agregatning bir soat mobaynida bajargan ishi (12 ustun)

T_{dn} – ish kunining davomiyligi (7-grafa)

D_{ish} – ish kunlari soni (15- grafa)

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun,

$$W_a = W_{\tilde{n}\tilde{i}\tilde{a}\tilde{o}} \cdot T_{\tilde{a}\tilde{i}} \cdot D_{\tilde{e}\tilde{o}} = 1 \cdot 8,5 \cdot 12 = 102; \text{ ga}$$

17-ustun. Talab etiladigan traktorlarning soni (bitta ishni bajarish uchun) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\dot{I}_{\delta} = \frac{U_{\delta}}{W_{\alpha}}; \text{ dona}$$

bu yerda U_f – Fizik birliklardagi ish hajmini (11-ustun)

W_{α} - Bir aggregatning bir mavsumda bajaradigan ishi (16-ustun dan olinadi).

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun

$$\dot{I}_{\delta} = \frac{U_{\delta}}{W_{\alpha}} = \frac{342,4}{102} = 3; \text{ dona}$$

18-ustun. Bitta ishni bajarish uchun talab etiladigan QXM soni quyidagicha aniqlanadi.

$$\dot{I}_{\tilde{e}\tilde{o}\tilde{i}} = \dot{I}_{\delta} \cdot n_{\tilde{e}\tilde{o}\tilde{i}} : \ddot{a}\ddot{t}\ddot{t}\ddot{a};$$

Bu yerda $n_{\tilde{e}\tilde{o}\tilde{i}}$ – 1 ta aggregat tarkibidagi qishloq xo'jalik mashinalari soni,
dona

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun

$$\dot{I}_{\tilde{e}\tilde{o}\tilde{i}} = \dot{I}_{\delta} \cdot n_{\tilde{e}\tilde{o}\tilde{i}} = 3 \cdot 1 = 3; \ddot{a}\ddot{t}\ddot{a};$$

19- ustun. Talab etiladigan smenalar soni

$$n_{\tilde{n}\tilde{i}} = \frac{U_{\delta}}{W_{\tilde{n}\tilde{i}}}; \ddot{a}\ddot{t}\ddot{a}$$

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun

$$n_{\tilde{n}\tilde{i}} = \frac{U_{\delta}}{W_{\tilde{n}\tilde{i}}} = \frac{342,4}{7} = 48,91; \text{ dona}$$

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

Traktorlarni shartli traktorlarga aylantirish ($\omega_{\text{н}}$). Bu traktor markasiga bog'liq, shartli traktor DT-75 qabul qilingan. Misol uchun VT-150 = 1,45 yoki MTZ-80=0,7 va hakozo

20-ustun. Traktorlarning shartli etalon gektardagi smenalik ish unumdorligi

21-ustun. Jami ish hajmi shartli etalon gektarda,

$$U_{\phi \cdot \dot{\phi} \cdot \ddot{\phi}} = W_{\ddot{n}_i \cdot \dot{\phi} \cdot \ddot{\phi}} \cdot n_{\ddot{n}_i}; \quad \text{sh.et. ga}$$

$W_{\ddot{n}_i \cdot \dot{\phi} \cdot \ddot{\phi}}$. –traktorning shartli etalon gektardagi smenalik ish hajmi, sh.t.et. ga

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun

$$U_{\phi \cdot \dot{\phi} \cdot \ddot{\phi}} = W_{\ddot{n}_i \cdot \dot{\phi} \cdot \ddot{\phi}} \cdot n_{\ddot{n}_i} = 4,9 \cdot 48,91 = 239,659; \quad \text{sh.et.ga}$$

22-ustun. Yoqilg'i sarfi, bir birlik uchun $q_{\ddot{\phi}}$, litr

23-ustun. Kunlik yoqilg'i sarfi

24-ustun To'la ish hajmi uchun yoqilg'i sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

a) agar ishning o'lchov birligi *gektarda* bo'lsa

$$Q_e = U_{\phi} \cdot q_{\ddot{\phi}}; \quad \text{ëèòðð};$$

Bu yerda U_{ϕ} – agrotexnik tadbir bajariladigan maydon

$q_{\ddot{\phi}}$ –bir birlik uchun yoqilg'i sarfi, litr, (22-ustun).

$$Q_e = U_{\phi} \cdot q_{\ddot{\phi}} = 342,4 \cdot 5,6 = 1917,44; \quad \text{ëèòðð}$$

25-grafa. Traktorning ishlagan motto-soati

$$T = U_{\phi} / W_{\ddot{n}_i \cdot \dot{\phi}} = 342,4 / 1 = 342,4; \quad \text{soat};$$

26-ustun Bir birlik uchung mehnat sarfi, $i_{\ddot{i}_{\phi}}$ kishi soat /ga yoki kishi .soat /t

Ishni bajarish uchun jami mehnat sarfi. I

$$I = U_{\phi} \cdot i_{\ddot{i}_{\phi}}; \quad \text{kishi. soat}$$

TTZ-80.11 traktori bilan ochiq usulda chigit ekish uchun

$$I = U_{\phi} \cdot i_{\ddot{i}_{\phi}} = 342,4 \cdot 3 = 1027,2 \text{ kishi.soat}$$

II. 4. Mashinalardan foydalanish grafigini qurish

Har bir operasiya (ish turi) bo'yicha kerakli agregatlarning soni hisoblab chiqilgandan keyin, MMTP ni tashkil etuvchi traktorlarning yalpi sonini hisoblab topish kerak. Agregatlarning yalpi sonini texnologik xaritdan topish qiyin, chunki ular birga qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda ishlatiladi va ish muddatlari tug'ri kelmay qoladi. Shuning uchun ham traktorlarning va murakkab mashinalarning umumiyligi xo'jalikdagi miqdori grafik (chizma) usulda aniqlanadi.

Grafik har bir markali traktorlar uchun alohida, to'g'ri burchakli koordinat o'qlarida bajariladi. Har bir operasiyani bajarish uchun gorizontal o'qda masshtabda kalender kunlar D_k (5-ustun), vertikal o'qqa traktorlar soni M_t (17-ustun) qo'yiladi.

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

Grafikda to'rtburchak shaklida traktor-kunlar hosil bo'ladi. Grafikda har bir operasiya uchun, texnologik xaritadagi raqami qo'yiladi. Bir necha operasiyalarning kalendar muddati mos kelib qolsa, ularni qo'shib, birining ustiga keyingisi qo'yiladi.

Grafikda yana alohida ordinata o'q tanlanib ushbu o'qqa ma'lum masshtab asosida traktorning ishlagan motto-soati ko'yiladi. Har bir traktor uchun alohida yil davomida texnologik kartada ko'rsatilgan ma'lum ishlarni ketma-ketlikda bajargandagi ishlagan motto-soati kalendar kuniga mos holda qo'yilib umumiyligida ishlagan motto-soati keltirib chiqariladi.

O'tgan yillarda ishlagan motto-soatidan oxirgi o'tkazilgan texnik servis xizat ko'rsatish (TSXK) turi aniqlanadi va ishlagan kunlariga mos holdagi ishlagan motto-soatini ifodalovchi grafikka quydagi keltirilgan jadvaldan foydalangan holda ishlagan motto-soatiga mos hola ma'lum kalendar kunida o'tkaziladigan TSXK ning shartli belgisi gafik ostidagi chizilgan katakchaga traktorning xo'jalik nomeri keltirilgan qatorga qo'yiladi

8-jadval

Texnik servis xizmat ko'rsatish turi	TSXK	TSXK	TSXK	TSXK	TSXK	KT
Ishlagan motto – soati, m.s	125	250	500	1000	2000	6000
Shartli belgisi	Δ	○	□	■	■■	[O]

Mashinalardan foydalanish grafigi TTZ-60.11, TTZ-80.11/10 MTZ-80X traktorlari uchun Bitiruv malakaviy ishining bиринчи chizma varag'ida keltirilgan, T-4A-II va VT-150 traktorlari uchun mashinalardan foydalanish grafigi Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi chizma varag'ida keltirilgan

QISHLOQ XO'JALIGI MASHINALARIGA BO'LGAN TALABNI ASOSLASH

Talab qilinadigan qishloq xo'jaligi mashinalari soni texnologik haritadan va mashinalarni ishlatish grafigidan aniqlanadi. Qishloq xo'jaligi mashinalarini sonini aniqlash uchun hisoblash texnologik xaritasining quyidagi ustunlari asos bo'la oladi:

1-ustun – ishlar nomi
 5- ustun – ishlarni bajarish taxminiy kalendar muddati ($D_{\hat{E}}$)
 11- ustun – fizik birlikdagi ishla hajmi ($U_{\hat{o}}$)
 18-ustun – talab qilinadigan qishloq xo'jaligi mashinalari soni

Yil davomida bir marta ishlatiladigan maxsus mashina (chigit) ekadigan seyalka, g'o'za shoxlarni chilipiyydigan mashina, silos o'rib yig'adigan va makkajo'xori o'rib yig'adigan kombayn) lar tegishli qishloq xo'jalik ishlarni bajarish uchun hisoblash natijalariga muvofiq qabul qilinadi.

Yil davomida bir nechta ishlarda qo'llaniladigan umumiyligida ishlarni bajaruvchi mashina (plug, qator oralariga ishlov beruvchi kultivator, seyalka paxta, terish mashina) larning texnologik xaritadagi kalendar muddati taqqoslanadi. Texnologik xaritadan

Узг	Варак	№ хужумат	Имзо	Сана	Варак

Oqdaryo tumani «Dahbed» ММТР сіда тегішлі максулотларни yetishtirib, yig'ishtirib olishda texnologik kartaga asosan talab etiladigan traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik mashinalarining rusumi va soni quyidagicha bo'lar ekan
12-jadval

№	Тракторлар русуми	Талаб этилади дона	Мавжуд, дона	Харид қилиш лозим, дона
1	ТТЗ-60. 11	5	4	1
2	ТТЗ-80. 11	6	5	1
3	МТЗ-80Х	3	5	-
4	ВТ-150	1	1	-
5	Т-4А-II	1	1	-
6	Т28Х4М	-	2	-
7	МХ-135	-	1	-
Автомобил	ЗИЛ-4331	1	-	1

Кишлоқ хўжалик машинаси				
1	ПД-3-35	1	-	1
2	ПН-4-35	1	1	-
3	БЗТС-1	24	30	-
4	ЧКУ-4А	1	1	-
5	ПГХ-0,5	2	1	1
6	КЗУ-0,3	1	1	-
7	РОУ-6	4	2	2
8	РМГ-0,7	2	2	-
9	ОВХ-600	3	2	1
10	ГН-4А	1	1	-
11	2ПТС-4-793	9	8	1
12	ГХ-4А	1	1	-
13	ППА-3,1	1	-	1
14	МВ-6А	1	-	1
15	СМХ-4	6	6	-
16	МВХ-5,4	1	-	1
17	КХУ-4	9	9	-
18	КБН-0,35	1	-	1
19	КВ-3,6А	1	2	-
20	СЗ-3,6А	2	-	2
21	Булдозер	1	1	-

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

ularning kelendar muddatlari bir davrga to'g'ri kelsa, talab qilinadigan mashinalar soni ularning yig'indisidan iborat bo'ladi. Kalendar muddatlari bir davrga to'g'ri kelmasa ularning ko'p talab qilinadigan operasiyadagi (muddatidagi) mashinalar soni qabul qilinadi. Eng qulay usul qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash reja grafigidan foydalanishdir.

Reja grafikda har bir markadagi qishloq xo'jaligi mashinalari uchun gorizontal chiziqlar bilan bajariladigan qishloq xo'jaligi ishlarning kalendar muddati yilning oylari bo'yicha belgilanadi. So'ng berilgan markadagi barcha mashinalar bilan yil davomida bajariladigan ishning hajmi, umumiy talab qilinadigan mashinalar soni, bir yilda bajariladigan o'rtacha ishning miqdori, qo'shimcha xo'jalik uchun olinadigan mashinalar ko'rsatiladi.

Moylesh materiallarini asosiy yoqilg'iiga nisbatan sarflash normasi.

9-jadval

Mashina rusumi	Asosiy yoqilg'iiga nisbatan moy va benzin sarflash normasi foyz xisobida, %			
	Motor moyi	Transmissiya moyi	Solidol	Yurgizib yuborish uchun benzin
KEYS	0,236	0,2	0,6	
T-4A-II	4,1	0,9	0,02	1
VT-150	3,6	0,4	0,04	
TTZ-80-11/10	4,1	1,1	0,04	
TTZ-60-11	3,5	1,5	0,6	
ZIL-130	6,1	1	0,25	1
E-304V	3,5	1,1	0,06	
MTZ-80X	4,1	1,1	0,04	

Har bir rusumdagagi mashinaning texnologik kartadagi ishlarni bajarishda sarflagan yoqilg'i moylash materiallari.

10-jadval

Mashina rusumi	Soni, dona	Yoqilg'i sarfi, litr				
		Yoqilg'i	Motor moyi	Transmissiya moyi	Solidol	Benzin
KEYS-2166	1	7213	17,02	14,43	43,28	-
T-4A-II	1	15077	618,1	135,7	3	150,8
VT-150	1	39470	1420,9	157,9	15,8	-
TTZ-80-11	6	42407	1738,6	466,5	16,96	-
TTZ-60-11	5	27252	953,82	408,8	16,33	-
E-304V	1	116,4	4	1,28	0,07	1,2
ZIL-4331	1	4748	28,9	47,5	11,87	
MTZ-80X	3	21552	83,6	237	12,93	-
jami	-	157807	566,94	1469,11	120,24	152

Узг	Варак	№ хужоҳам	Имзо	Сана	Варак

II.7. Yil davomida yoqilg'ini keltirish rejasি

**"DAHBED" FERMERLAR UYUSHMASI XUDUDIDA QIShLOQ XO'JALIK
MAXSULOTLARINI YeTISHTIRISH VA YIG'IShTIRIB OLİSh UChUN
KALENDAR OYLAR BO'YIChA XUDUD ShAXOBChASIGA YeTKAZIB
KELINISHI TALAB ETILADIGAN YoQILG'I MIQDORI**

11-jadval

Kalendar oylar	yanvar	fevral	mart	aprel	May	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	Jami
Talab etiladigan dizel yoqilg'isi, litr	2274	6432	5626	8355	16804	23385	31567	10997	9033	10702	21249	6635	153059
Benzin, litr	-	-	-	-	-	2374	2374	-	-	-	-	-	4748

Ushbu jadvalda keltiilgan yoqilg'i zahira tarzda har bir oy uchun oldindan ya'ni oy boshigacha xududning yoqilg'i shaxobchasiga keltirilishi shart ya'ni quyidagicha bo'ladi

12-jadval

Kalendar oylar	yanvar	fevral	mart	aprel	May	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	Jami
Talab etiladigan dizel yoqilg'isi, litr	6432	5626	8355	16804	23385	31567	10997	9033	10702	21249	6635	2274	153059
Benzin litr	-	-	-	-	2374	2374	-	-	-	-	-	-	4748


Узг	Варак	№ хужожат	Имзо	Сана	Варак

III. KONSTRUKTIV QISM

III. 1. Qator orasidagi kessaklarni maydalash moslamasi

Ekinlarning qator orasiga qatma-qat ishlov berishda (qator orasini yumshatishda) tuproq namligi yetarlicha holatda bo'limganda yoki ishchi organlar soni kam bo'lganda tuproqqa ishlov berilsa kessaklarning hosil bo'lish ko'p bo'ladi. Ushbu holatni oldini olish uchun qator orasidagi kessaklarni maydalash moslamasini qo'llashni taklif etamiz.

Ushbu moslamaning umumiy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Qator orasidagi kessaklarni maydalash moslamasi
 1-planka; 2-tishli pichoqni tutuvchi vtulka; 3-barmoq; 4-ko'ndalang cheklagich plastina; 5-qulf (povodok); 6- tashqi vtulka; 7- markaziy vtulka; 8-oldingi tishli pichoq; 9-ketingi tishli pichoq.

001.051.000. BMI. 2013 y.

Узг	Варак	Хужумат №	Имзо	Сана
Бажарди	Pulatov Sh			
Рахбар	Отиқон А			
М.назорат				
Т.назорат				

XM va
MOT" -t VA boshqarush


Адаб Варак " -т Варакида

Texnologik qisim

Qator orasidagi kessaklarni maydalash moslamasining tuzilishi: 1-planka; 2-tishli pichoqni tutuvchi vtulka; 3-barmoq; 4-ko'ndalang cheklagich plastina; 5-qulf (povodok); 6- tashqi vtulka; 7- markaziy vtulka; 8-oldingi tishli pichoq; 9- ketingi tishli pichoq

Planka (2-rasm) larning olidingi uchiga barmoq kiruvchi vtulkalar payvandlangan.


Bir plankaning vertikal tekislik bo'yicha o'rta qismiga vtulka payvandlanga ikkinchi plankaning (vetikal tekislik bo'yicha) pastgi va yuqorigi qisimlariga vtulkalar payvandlangan, yon plakalardagi vtulkalarni birining orasiga ikkinchisi kiritilib so'ng vtulkalar ichiga barmoq kiritiladi. Plakkalarni sharnili qilib barmoq tutashtirib turadi.



2-rasm: Planka



Plakkalarning tashqi qismiga gorizontal tekislik bo'yicha ma'lum masofada ichki diametri 17 mm bo'lgan tishli pichoqlni tutuvchi vtulka (4-rasm) payvandlangan.

Tishni pichoqni tutuvchi vtulkaning plankaga payvandlanadigan qismi (plankaga uzunligi bo'yicha yaxshi tegib turishi uchun) 3 mm charxlanib tekislanguyu Tishli pichoqning sterjen qismi (tishli pichoqni tutuvchi) vtulkaning ichki qismiga kirishi uchun vtulkaning ichki diametri 16h ulchamda teshilgan. Tishli pichoq stejenining yuqori qismiga 31 mm M14 rezba ochilgan. Tishli pichoqning sterjen qismi tishlarni tutuvchi vtulkaga kirgizilib (sterjenning yuqori qismidagi rezbaga) yuqori tarafi bolt buralib tishli pichoq qotiriladi.




3-rasm: Oldingi tishli pichoq

Tishli pichoqning ko'ndalag kesmi kengligi 14 mm bo'lib rom shaklida, har bir tishli pichoqning ish kengligi 20mm. Tishli pisoqning pastgi uchidan (agregatning harakat yo'nalishi tarafga) 20mm balandlikda yuqorni qismidan ketingi uchining past qirrasi tarafiga tomon burchak qilib kirqilgan. Tishlar tig'ining uzunligi 150; 160; 170; 180; 190; 200; va 210;. Moslamadagi tishlar soni 13 dona, oldingi o'rta qisimdagи tishli pichoq (3-rasm) ning umumiy uzunligi 271 mm ya'ni eng uzun, sterjen qismining uzunligi 71 mm. Har bir tarafagi plastinalarga 6 donadan tishli pichoqlar qotiriladi. Tishli pichoqlar o'simlik tubiga yaqinlagan sari ularning botish chuqurligi kamayib borad




4-rasm : Tishli pichoqni tutuvchi vtulka



5-rasm : Ko'ndalang cheklagich plastina.

Ko'ndalang cheklagich plastina (5-rasm) tishlarni tutuvchi vtulka qotirilgan plankalarning orqa kismini tutashtirib turadi. U moslamaning ish kengligini rostlash uchun mo'ljallangan. U oldingi tish tarafga yaqin holatda plankaga boltlar bilan qotirilsa moslamaning ish kenligi eng katta bo'ladi va aksincha oldigi tishli pichoqqa nisbatan uzoq holatda qotirilsa ish kengligi eng kichik bo'ladi.



6-rasm: Barmoq.

Ko'ndalang chektagich plastina orqa tarafining (ko'ndalang tekislik bo'yicha) o'rta qismiga qulf payvandlanga. Ushbu qulfga ustun kiritilib bolt yordamida qotirladi. Ustunning ikkinchi yuqori tarafi kultivator gryadilidagi qulfga qotiriladi.

III.2. Tishni egilishga bo'lган mustahkamlik sharti.

Ish vaqtida tish tuproqdagi birorta qattiq jisimga to'g'ri kelganda. Qayrilib kntmaslik shart.


Tishni egishga majbur qiluvchi kuch momenti (moslama o'rtasida joylashgan tish uchun topamiz), M

$$M = l \cdot P = 210 \cdot 1000 = 210000$$

bu yerda l – kuch yelkasi, m

D – kuch momenti, I

$$P=1000; \text{N}$$



Qarshilik momenti (W) ko'ndalang kesim yuzasi aylana bo'lganda

$$W = 0,1D^3$$

bu yerda D – sterjin diametri, 16 mm

$$W = 0,1 \cdot 16^3 = 409,6 \quad \frac{H}{\text{mm}^2}$$

Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	Варак

Egilishdagi mustahkamlik sharti

$$G = \frac{M}{W} \leq [G_{\text{ya}}]$$

bu yerda: $[G]$ - egilishdagi ruxsat etilgan kuchlanish

$$G = \frac{M}{W} = \frac{210000}{409,6} = 512,6 \frac{H}{\text{m}^2}$$

Tanlaymiz $C_T - 45X$

Uning egilishdagi mustahkamlik sharti $G_{\text{eg}} = 1200 \frac{H}{\text{m}^2}$

Egilishdagi ruxsat etilgan kuch

$$[G_{\text{eg}}]_{-1} = 0,45 \cdot 1200 = 540 \frac{H}{\text{m}^2}$$

yani $512,6 \leq 540$

Egilishdagi mustahkamlik shartini $C_T - 45X$ materiali qanoatlantiradi

III. 3. Barmoqni qirqlishga hisobi

Qator orasidagi kessalarni maydalovchi moslama ish holatida bo'lib agregat oldinga harakatlanganda pichoqlarga tuproq qarshilik ko'rsatadi. Ushbu qarshiliklar planka orqa i uning davomiga tutashgan barmoqqa ta'sir qiladi, barmoq ushbu ta'sir qiluvchi kuchlar ta'sirida qirqlimasligi lozim

Qirqlishdagi hisobiy kuchlanish

$$\tau_{\text{nd}\delta} = \frac{4F}{\pi \cdot d^2 \cdot i \cdot 2}$$

bu yerda τ_{cpes} – qirqlishdagi hisobiy kuchlanish

d – diametri, 6 mm

i – kesiluvchi yuzalar soni

F – barmoqqa tasir etuvchi kuch, 1000 H

$$\tau_{\text{nd}} = \frac{4 \cdot 1000}{3,14 \cdot 6 \cdot 1 \cdot 2} = 106,15 \frac{H}{\text{mm}^2}$$

Barmoq materialini tanlaymiz $C_T - 15$ $[\tau_{\text{cpes}}]_{-1} = 110 \frac{H}{\text{mm}^2}$

Qirqlishdagi mustahkamlik sharti

$$\tau_{\text{cpes}} \leq [\tau_{\text{ep}}]$$

ya'ni

106,15 ≤ 110

Mustahkamlik shartini qanoatlantiradi.

IV. ATROF MUHIT VA MEHNAT MUHOFAZASI

MMTP xududida mehnatni muhofada qilinishining holati

Samarqand viloyati Oqdaryotumani “Dahbed” uyushmasi xududidagi har fermer va o’z ishchilarini ishga qabul qilishda ularni jarohat olmasligi uchun dastlab kirish instruktaji so’ng ish joyida instruktajlar o’tkazadi. Keyin esa reja asosida instruktajlar o’tkazadi.

Kirish instruktaji maxsus forma №1 asosida jurnalga yoziladi. Qayta o’tkazilgan instruktajlar esa maxsus jurnalga yozib boriladi.

Mashina traktor parkida kirish instruktajini texnika xavfsizligi muxandisi o’tkazadi.

Ish joyda o’tkaziladigan instruktajni o’sha joydagi rahbar mutaxasislar o’tkazadi. Reja asosida o’tkaziladigan instruktajlarni texnika xavfsizligi muxandisi rahbar mutaxasislar bilan birga o’tkazadi.

Ish joylarida texnika xavfsizligiga rioya qilinishini uyushma rahbari har doim kuzatib boradi va uni bajarilishi uchun zarur bo’lgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishni mutaxasislardan talab qiladi.

Texnikalar bilan ishlaydigan haydovchilardan har doim texnika xavfsizligiga rioya qilish kerakligi o’qtiriladi va talab qilinadi. MTP lardagi remont ustaxonasining ishchilari maxsus kiyimlar bilan ta’minlangan. Inson organizmi uchun zaharli bo’lgan moddalar bilan ishlaydigan ishchilarga maxsus kiyimlar va zarur bo’lgan holatlarda RU-60M havo tozalagichi ham beriladi. (2-RPG-6.7, Astra – 2m, PRSh – 741, F – 62 ShM; U – 2 K, lepestok 200)

Texnika xavfsizligi injenerining xonasi va ish uchastkalarida maxsus texnika xavfsizligi burchaklari tashkil etilgan bo’lib, ular ko’rgazmali quollar bilan jihozlangan.

Har yili belgilangan miqdorda mehnatni muhofaza qilish uchun pul ajratiladi. 2012 yilda mehnatni muhofaza qilishga har bir kishi uchun 1950 so’m ajratilgan ushbu mablag’ (pul) ning bir qismi MMTP idorasida yong’inga qarshi kurash uchun mo’ljallangan shitlarni qayta jihozlash va hovuz atrofini ta’mirlash uchun sarflangan.

O’tgan yili 1 yil davomida har bir ishchi uchun mehnatni muhofaza qilishga 2030 so’m sarf qilingan.

Fermerlar uyushmasida mehnatni muhofaza qilishning holatini yuqori darajada deb baholash mumkin emas, chunki mavjud 21 ta fermerdan 8 tasida (dalada ishchilarining dam olishi uchun) dala shiponi mavjud, qolgan 13 fermerda ishchidarning dam olishi uchun sharoit yaratilmagan, ichimlik suvi muammosi ham hal qilinmagan. Garajdagi ishchilarining dam olish xonalarida qishda isitilishi yetarli darajada emas, havo almashtiruvchi ventlyator mavjud emas. Havo isib ketganda xonani sovituvchi maxsus sovutgichlar ish joylariga o'rnatilmagan.

2012 yil davomida uyushmada ish vaqtida 1 marotaba ishchilarining jarohatlanishi ro'y berdi. Bo'larning dalada sodir bo'lgan. Shu jarohatlanishlar tufayli 24 ish kuni yo'qolangan. 2011 yilda uyushmada bir kunda ishga chiqadigan ishchilar soni o'rtacha 615 kishini tashkil etgan.

2011 yilda qayd qilingan ishchilarining 2 marotaba jarohatlanganligi tufayli 28 ish kuni yo'qotilgan. 2011 yilda MTP da o'rtacha bir kunda ishga chiqadigan ishchilar soni 605 ta bo'lgan. Mehnatni muhofaza qilish uchun esa bir ishchi uchun o'rtacha 1870 so'm sarflangan

8- jadval

Nº	Ko'rsatgichlar nomi	Birligi	2011	2012
1.	Bir kunlik ishchilar soni	(R)	605	615
2.	Jarohatlanishlar soni	(T)	2	1
3.	Yo'qotilgan ish kunlari	(D)	28	24
4.	Jarohatlanishlarning qaytarilish chastotasi	$K_r = \frac{T \cdot 100}{P}$	0.33	0.162
5.	Jarohat og'irligini hisobga oluvchi koeffisiyenti	$K = \frac{D}{T}$	14	24
6.	Ish vaqtini yo'qotilishni hisobga oluvchi koeffisiyenti	$K_a = \frac{D \cdot 100}{P}$	4,62	3,9
7.	Bir ishchi uchun sarf bo'lgan (mehnatni muhofaza qilishga) pul	so'm	1870	1950
8.	Ishchilarни jarohatlanishi tufayli sarf bo'lgan pul	so'm	333200	285600

Mehnat muhofaza qilishning yaxshilash uchun ko'rildigan choralar rejasি

8-jadval

Nº	Qilinadigan ishlar	Vaqti	Joyi	Bajaruvchi shaxslar
1	Idora xududidagi transformator atrofini o'rnatish	031.12.2013	Idora xududi	Prorab
2	Garajda kompressor atrofini o'rnatish	10.05.2013	Garaj	Prorab va bosh injener

3	Garajdagi ishchilarning yuvinish xonasiga suv isitish moslamasi o'rnatish	20.04.2013	garaj	Garaj mudiri
4	Texnika xavfsizligi kabinetini yangi jihozlar bilan boyitish	Yil davomida	MTP	Texnik xavfsizligi injener

Uyushmada ishchilarning o'z hohishiga asosan yong'inga qarshi kurashuvchi gruppa tuzilgan.

Ular 12 kishidan iborat. Mayjud a'zolar 4 guruxga bo'lingan. Bo'lar uchun 4 nasos 4 ta motopompa MPG – 10 va 12 ta o't o'chirgichlar ASVM- 80 ajratilgan.

Uyushmaning hamma uchastkasida yong'inga qarshi shitlar o'rnatilgan bo'lib, ular kerakli jihozlar bilan ta'minlangan

Tabiat muhofazasi va ekologiya

Hozirgi davirda insonyat oldida turgan muammolardan biri bu ekologiya muammolaridir. Har bir inson ekologiyani buzulishini oldini olish uchun fikirlash asosida ish qilish kerak. Ayniqsa ishchi yonuv dvigatellari o'rnatilgan traktor va avtomobilardan foydalanilganda ularning dvigatellari ishlaganda chiqadigan zaharli gazlarni miqdorini miyordan oshishiga yo'l qo'ymaslik uchun dvigatelning yoqilg'ini purkash burchagini aniq o'rnatish, silindr-porshen gruppasi va gaz taqsimlash mexanizmi detalarining ishga yaroqsizlarini o'z vaqtida almashtirilishini taminlash zarur. Iloji boricha oxirgi davrda fan yutuqlariga asosan ishlab chiqarilayotgan, yani yoqilg'ini purkalishini tirsakli valning aylanish chastotasiga va dvigatelning ish rejimiga asosan avtomatik ravishda o'zgartiradigan yoqilg'i nasoslaridan va dizel dvigatellardan foydalanishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir Agar mumkin bo'lganda ekalogiyani buzmaydigan elektrodvigatelli traktor va avtomobilardan foydalinishni tashkil etish zarur, qishlok xo'jaligi ekinlarini etishtirishda agromostlardan foydalanishda yoki transport vositasi sifatida trolebus, tramvay va elektropoyezdalardan keng foydalanish zarur

Yoqilgi moylash materialaridan foydalanishda ularni suv havzalariga tuproqqiga to'kilmasligini taminlash, foydalinishga yaroqsiz yoqilgi moylash materiallarini ekologiyaga zarar yetkazmaydigan qilib bartaraf etishni yo'lga qo'yish zarur.

Bizning fermerlar uyushmasida ekologiya muamolariga rioya qilinishini tahlil qiladigan bo'lsak, uyushmadagi ko'pgina traktor va avtomobilar dvagatellari ishlaganda

chiqaradigan zaharli gazlar miqdori ruxsat etilganidan yuqori, bu esa atrof muhit sharoitiga salbiy tasir ko'rsatadi.

Shularni oldini olish uchun uyushmadagi barcha ichki yonuv dvigateli bilan ishlaydigan texnik vositalar yilga har uch oyda (ekologiya muamolari asosida) texnik ko'rikdan o'tkazishni yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda.

Dvigatel ishlatilganda ishlagan gazlar bilan chiqadigan uglevod miqdori 1.5% dan oshsa bu texnik vositalarning buzulgan qisimlari tuzatilib kamchiligi bartaraf etilmoqda. Shundan so'ng ulardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Shu vaqtgacha yoqilg'i-moylash materialaridan foydalanilganda ularni tuproqqa suv xavzalariga to'kilmasligini taminlashni har bir tegishli ishchilardan talab etilayotganligiga qaramasdan baribir ko'pchilik shaxslar yoqilg'i moylash materiallarini tuproqqa to'kilishiga va bazi hollarda suv havzalariga ham to'kilishiga yo'l qo'ymoqda. Ayniqsa foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallarini bartaraf etish choralar to'la amalga oshirilmaydi. Natijada ular tuproqqa tushib uning ekalogiyasini buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Tabiatni atrof muhidni zararli ximiyaviy brikmalar bilan ifloslanishidan muhofoza qilish. Qishloq xo'jaligida o'simlik zarar kunandalariga, kasaligiga va begona o'tlarga qarshi ishlatiladigan zaharli ximikatlar hayvonlar va inson organizmlari uchun ham zararlidir.

DDT, dieldrin kabi insektisidlar turpoqda juda uzoq vaqt yani 15 yildan 50 yilgacha saqlanishi aniqlangan. DDT tuproqda to'plandi, undan tuproq organizmlari (chuvalchang qurtlar)ga o'tib ular orqali boshqa hayvonlarga o'tadi va oqibatda ular zaharlanadilar. Hozirgi paytda bunday DDT ni ishlatish taqiqlangan.

MMTP xududida ekologiyani yaxshilash maqsadida o'tgan yili bohorda xudduda joylashgan maktab va koolejdagi barcha ishchilar va o'quvchilar shu jumladar MMTPdagi barcha rahbarlar 20 donadan ko'chatlar o'tkazib ularning parvarishini ya'ni unub chiqishini ta'minladilar.

Traktor-dalachilik ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi

Dala ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi bo'yicha umumiyl talablar. Xo'jalik mashina va qurollarida ularning tuzilishi ishlash prinsipi va xavfsizlik texnikasi qoidalarini yaxshi biladigan kishilargina ishlashlari mumkin. Traktorlar va boshqa o'zi

yurar qurollar hamda murakkab qishlok, xo'jalik mashinalarda ishslashga shu mashinalarda ishslashga guvohnomasi bo'lgan kishilarga ruxsat etiladi.

Ishlash prosessida mashina va mexanizmlarda birikkan joylar bo'shab qolishi, zazorlar kattalashishi, moy va yonilg'i sizib oqishi mumkin. Shuning uchun e'tiborsizlik bilan qilingan texnikaviy xizmat avariyyaga va boshqa shunga o'xshash ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Masalan, fiksasiyalovchi shplintni qo'ymaslik oqibatida rul tortqisini rostlash probkasi buralib ketadi va natijada traktor yoki avtomobil boshqarilmaydigan bo'lib qoladi, sovitish sistemasidan suv oqishi dvigatelning qizib ketishiga, birdaniga to'xtab qolishiga natijada avariya holatini vujudga kelishiga olib keladi; bunday dvigatelga qo'shimcha suv qo'yish traktorchining kuyib qolishiga olib kelishi mumkin. Traktor yurish qismining detallari va bog'lanishlarini o'z vaqtida tekshirib turmaslik oqibatida traktor ag'darilib ketishi mumkin. Agar mashinani ishlatish paytida odamlar salomatligi yoki hayotiga xavf soluvchi kamchilik sezilsa, u xolda ishni darhol to'xtatish kerak. Har bir traktorchi va kombayinchi mashinaga o'tirishdan avval albatta uning texnikaviy holatini tekshirib ko'rishi kerak.

Mashinaning harakatdagi har qanday detali xavflidir. Aylanayotgan val, yulduzcha va tishli g'ildirak qo'lni, sochni, yigishtirib olinmagan bosh kiyimini va boshqalarini ilashtirib ketishi mumkin. Shu sababli mashina va mexanizmlarning harakatdagi qismlarini turlicha ixotalab qo'yiladi. Lekin harakatdagi hamma detallarni ham ixotalab bo'lmaydi, shuning uchun xavfli zonada ishslashga ham to'g'ri keladi.

Hamma mashinalarda ham xavfli zonalar mavjuddir. Bunday joylar mashinaning tashqarisida (motovilo, kombaynning qirquvchi apparati va boshqalar) va ichkarisida (yonuvchi baraban, tozalash ventilyatori, konveyerlar) bo'lishi mumkin. Yurgizish dvigatelining aylanayotgan maxovigi xavfli sanaladi, shu sababli yurgizish uchun dvigatelning maxovigini qo'l bilan aylantirishga ruxsat etilmaydi.

Harakatdagi mashinaning o'zi ham xavfli hisoblanadi. Shuning uchun ishlab turgan dvigateli yoki harakatdagi mashinani moylash va kamchiliklarini yuqotish ta'qiqlanadi. Ishlash paytida mexanizasiyalashtirilgan agregatlarga xizmat ko'rsatuvchi kishilar xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilishlari kerak.

Dalada ish boshlashdan avval mexanik boshchiligidagi traktorni ishlatib tekshirib ko'rish, ishga yaroqli uskunalar, texnikaviy xizmat ko'rsatish uchun kerakli moslamalar, birinchi yordam aptechkalari va o't o'chirgichlar bilan ta'minlanganligi aniqlanishi kerak.

Dalada har bir traktor va qishloq xo'jaligi mashinasi uchun alohida vaqtincha to'xtatish joylari ajratilishi kerak. Mashinalarni, alohida olingan tarktorni, shuningdek, agregatni yurgizish va o'rnidan siljitishtida tula xavfsizlik ta'minlanadigan qilib joylashtirish kerak. Mashinalarni to'xtatish joylariga tartibsiz joylashtirish baxtsiz hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Odamlarning dam olish joylarini to'g'ri aniqlash va belgilash katta ahamiyatga ega. Bu talabni bajarmaslik ham baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

Agar g'ildirakli traktorlarda bajarilayotgan ish uchun tor oraligining keragi bo'lmasa, u holda g'ildiraklar eng katta oralikda o'rnatilishi kerak.

Traktorga mashina va qurollarni tirkash, shuningdek, ularni traktorga osishda xavfsiz usullardan foydalanish lozim. Traktor keyingi yo'li bilan sekin-asta mashinaga qarab harakatlanishi kerak. Bu vaqtida traktor va mashina yoki birkitish qurilmasi oralig'ida turish mumkin emas. Traktor kerakli joyda to'xtaganidan va traktorchi ilashish muftasini uzganidan keyingina .traktorni mashinaga ulashga yoki osishga ruxsat beriladi. Traktorga yonilgi-moylash materiallari quyish yong'in xavfsizligi qoidalari amal qilgan holda bajarilishi kerak. Traktorni kechasi ishlatganda uning yonilg'i baki smenaga yetadigan miqdorda yonilg'i bilan kunduzi to'ldirib olinishi kerak. Traktor yonilg'i bilan kechasi to'ldirish mumkin emas. Traktor agregatini dala uchastkasiga olib chiqish oldidan traktorchi uchastka relyefi bilan yaxshi tanishishi va brigadir bilan birgalikda traktorning yurish marshrutini belgilab olishi kerak. Uchastkadagi xavfli joylar (chuqurlar, toshlar) yuqotilishi, agar buning iloji bo'lmasa, u vaqtida tayoqchalar yoki boshqa signal belgilari bilan belgilab qo'yilishi kerak

Ish boshlashdan avval kontrol egat olish va uchastka chekkalarida burilish polosalarini belgilab quyish kerak. Bunday tayyorgarliksiz, traktor aggregatining dala uchastkasida ishlashiga ruxsat etilmaydi.

Traktorda transport ishlarini bajarishda rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari

Transport mashinalarini haydashga «yo'l qoidalaridan» imtixon topshirgan, shuningdek, xafsizlik texnikasi bo'yicha instruktaj olgandan keyin ruxsat etiladi. Transport ishlarida foydalaniladigan traktorlar, traktor priseplari va o'zi yurar shassilar bekamu ko'st va davlat belgisiga ega bo'lishi kerak. Transport ishlaridan foydalaniladigan g'ildirakli traktorlarning oldingi va ketingi g'ildiraklari eng katta kenglikka o'matilgan bo'lishi lozim.

Yo'l varaqasi yoki naryadi bo'lган prisepli traktorlargagina yo'lga (reysga) chiqishga ruxsat etiladi. Traktorchi-mashinist yo'lga chiqish oldidan traktor va prisep tormoz sistemasining bekamu ko'stligiga ishonch hosil qilishi, bosh tormoz silindrida tormoz suyuqligining yetarli ekanligini tekshirishi, elektr jixozlari, signal, stop signal, burilish ko'rsatkichlari, saqlagich qurilmalarning ishga yaroqli ekanligini tekshirib ko'rishi kerak. Prisepning yonbosh va keyingi bortlari mustahkam ilmoqlarga ilingan va o'z-o'zidan ochilib ketishiga yo'l qo'ymaydigan tortqilarga ega bo'lishi kerak.

Traktorni bir kundan ortiq yo'lga yuborilganda unga ikkita traktorchi-mashinist (kabinada ikkinchi odam uchun ham joy bo'lган taqdirda) ajratish, bitta traktorchi-mashinist bo'lganda esa ish bir smenadan ortmasligi kerak

Changiydigan (ohak, sement) materiallarni tashishda maxsus avtosisternalar tuynuklarining jips berkilishiga alohida ahamiyat berish kerak. Beda va somonni mustaxkam va mahkam qilib bog'lamasdan turib priseplarda tashishga ruxsat etilmaydi. Xo'jalik rahbarlari oson yonuvchi, portlovchi va zaharli moddalarni og'ir yo'l sharoitlarida tashuvchi traktorchi-mashinistlar bilan maxsus instruktaj o'tkazishlari va ularning e'tiborini berilgan sharoitdagи harakatning o'ziga xos xususiyatlarga qaratishlari kerak. Traktor poyezdlari o'z-o'zidan ajralib ketmasliklari uchun ularni bir-biriga mustaxkam qilib ulash kerak. Bunda ehtiyyotlik troslaridan foydalanish shartdir. Prisepning tormoz sistemasi va kuzovni ko'tarish mexanizmi bekamu ko'st va traktor kabinasidan boshqariladigan bo'lishi lozim. Traktorni burish 5 km/soat dan, havo aynigan paytlarda esa 3 km/soat dan yuqori bo'lмаган tezliklarda amalga oshirilishi kerak. Traktorni tez burish uchun esa burilish tomonidagi yetaklovchi g'ildirakni bir oz tormozlash kerak.

Ko'rinish yomon bo'lganda va sirpanchiq yo'llarda, shuningdek, yo'llarning o'yilib ketgan, tik ko'tarilgan va tushgan joylarida hamda qurilish uchastkalarida transport traktorlarining tezligini orttirish yaramaydi. Yo'lda yurganda yo'l belgilari talablari to'la bajarilishi kerak. MTZ tipidagi tez yurar traktorlardan transport ishlarida foydalanilganda

tormoz pedallarini birlashtirish (blokirovka qilish) va tormozlarni bir xil qilib rostlash talab qilinadi. Qiya joylarda to'xtash oldidan yoki tezlikni almashtirayotganda traktorni bir oz tormozlash kerak.

Traktorlar va o'zi yurar shassilar kolonna bo'lib harakat qilgan taqdirda ularning orasidagi masofa 30 m, balandlikka ko'tarilayotganda yoki undan tushayotgan paytda esa 50 m bo'lishi kerak. Oxirgi holatda traktorni birinchi tezlikda harakatlantirish va tezlikni almashtirmaslik lozim. Nishob joylarda transport traktorlarining ilashish muftasi yoki uzatmasi uzilgan holda bo'lishi, shuningdek, bitta mashina va transport vositasini yumshoq va bittadan ortiq transport vositalarini qattiq ilgaklar yordamida harakatlantirish taqiqlanadi.

Tor sharoitida ishlovchi traktorlar qiyalikda to'xtatilganda dumalash yoki sirpanishning oldini olish uchun ular yog'och ponalar yoki tormoz boshmoqlari bilan ta'minlanishlari kerak.

Yuk ortilgan traktor prisepini balandlikdan faqat birinchi tezlikda olib o'tishga ruxsat beriladi. Bir yoki ikki uqli prisepplarda, transport traktorlarida, traktor chanalarida, sisternalarda, shuningdek, g'ildirakli traktor va o'zi yurar shassint qanotlarida odam tashish qat'iy man etiladi. Tirkama va osma mashina yoki qurollarni transportirovka qilish paytida uning ustida ish joyi bo'lsa ham, odamlarni olib yurish mumkin emas.

Ballonli gazlarni faqat ballonga moslab yasalgan va ichiga namat yoki boishqa yumshoq material solingan maxsus konteyner yoki yacheykali stellajlarga ega bo'lgan traktor prisepclarida tashishga ruxsat beriladi.

Temir yo'llarning o'tish joylaridan o'tishda quyidagi ehtiyyot choralarini ko'rish talab qilinadi: harakat boshqarilmaydigan temir yo'lning o'tish joyiga yaqinlashayotganda tezlikni kamaytirish, 10 m qolganda esa mashinani to'xtatib, undan tushish va poyezd kelmayotganligiga ishonch hosil silish kerak. «Poyezddan ehtiyyot bo'l», «Temir yo'lning boshqarilmaydigan o'tish joyi» kabi ogohlantiruvchi belgilarga alohida e'tibor berish lozim, qo'riqlanadigan o'tish joyiga yaqinlashganda shlagbaum bekilsa yoki svetoforming qizil chirog'i yonib kolsa, u holda shlagbaumga 5 m yetmasdan to'xtash kerak. Shlagbaum ochilganda esa o'tish joyidan faqat birinchi tezlikda, agar traktorga bir necha prisep ulangan bo'lsa, avvalo ilmoqlarning mustaxkamligini bir tekshirib olingandan keyingina yurish kerak. Qishloq xo'jalik mashinalarini o'tish joyidan faqat transport holatida olib

o'tish mumkin. O'tish joyi va undan 100 m masofada transport vositalarini quvi6 o'tish taqiq.lanadi. Fakat bir qator bo'lib yurishga ruxsat beriladi.

O'tish joyida quyidagilar taqiqlanadi: to'xtab turgan transport vositasi yonidan o'tish, to'xtash, tezlik almashtirish, ilashish muftasini uzish, o'zining tuzilishi bo'yicha o'tish joyi yoki temir yo'lga zarar yetkazish mumkin bo'lgan mashinalarni tashish; agar traktor temir yo'lning o'tish joyida to'xtab qolsa va uni yurgizib bo'lmasa, u holda traktorni buksirga olish yoki lom ishlatish bilan o'tish joyidan tezda olib chiqish kerak. Yurgizish dastasi yoki yurgizish dvigatelining maxovigi yordamida birinchi uzatmada traktor tirsakli valini burash yo'li bilan xam yo'lni bo'shatib quyish mumkin. Bu ishni osonlashtirish maqsadida kompressiyani yo'qotuvchi mexanizmni qo'shib qo'yish kerak. Agar bu paytda o'tish joyga poyezd yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, unga qarab chopish va kunduz paytlarida ko'tarilgan qo'lni, kechasi bo'lsa yoqilgan chirok, yoki yongan alangani bosh ustida aylantirish bilan signal berish kerak; traktorchining yonida boshqa kishilar bo'lsa, u holda temir yo'lning o'tish joyidan har ikki tomoniga 1000 m masofaga bittadan odam yuborish va qanday qilib poyezdni to'xtatish mumkinligini tushuntirish lozim.

Temir yo'l stansiyasi boshlig'ining ruxsatisiz eni 5 m dan, yer sathidan balandligi 4,5 m dan ortik; bo'lgan mashinalarni, shuningdek, o'ta og'ir yuklarni va yukli transport chanalarini temir yo'lning o'tish joyidan olib o'tish taqiqlanadi. Bunday yuklarni tashishga ruxsat olish uchun yukni olib o'tishdan kam deganda 24 soat oldin ariza beriladi. O'ta og'ir va haddan tashqari katta yuklarni o'tish joyidan yo'l masteri yoki brigadirning nazorati ostida olib o'tiladi. Elektrlashtirilgan uchastkalarda bundan tashqari balandligi 4,5 m dan yuqori bo'lgan yuklarni olib o'tishda kontakt tarmoqlari distansiyasining vakili ham ishtirok etishi kerak. Traktorlarni soy va daryolar orqali olib o'tishda suvning sati g'ildirakli traktor o'qining balandligidan ortmasligi kerak. Daryoning tubi qattiq va tekis bo'lishi kerak.

Traktorchi ko'priklari va to'g'onlardan o'tish xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilganidan keyingina o'tishi kerak. Katta gabaritli materiallar yuklangan prisepli traktorni ko'priklardan o'tkazishda «Balandlik o'lchami cheklangan», «Og'irlik cheklangan», «Uqqa tushuvchi yuk» va harakat xavfsizligini ta'minlovchi shu kabi boshqa yo'l belgilariga alohida e'tibor berish kerak. Yo'lida ketayotganda chaqmoq chaqib momaqaldiroq bo'lsa, darhol traktorni to'xtatib dvigatelni o'chirish va kabinadan chiqish kerak. Yomg'irdan keyin burilishlarda va do'ngliklarga chiqishda nihoyatda ehtiyyot bo'lish kerak.

Mashinalarga texnikaviy xizmat ko'rsatish, remont qilish va saqlashda xavfsizlik texnikasi

Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarini remont qilish va ularga murakkab texnikaviy qarov o'tkazish shu maqsad uchun mo'ljallangan ko'tarish moslamalari, tirkaklar, verstaklar va asbob-uskunalar bilan jihozlangan maxsus xonalarda o'tkazilishi kerak.

Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalariga texnikaviy xizmat ko'rsatishda va ularni remont qilishda ishlatiladigan stendlar, asboblar va moslamalar to'g'ri ishlaydigan bo'lishi, o'zining vazifasiga mos tushishi va ishlarning xavfsiz bajarilishini ta'minlashi kerak.

Qishloq xo'jalik mashinalarining organlarini almashtirishda ishlatiladigan maxsus tirkaklar mashina va qurollarning xavfsiz hamda turg'un holatini ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Mashina va agregatlarni qismlarga ajratish va yig'ish uchun mo'ljallangan ish joylari ishlarning xavfsiz va qulay bajarilishini ta'minlaydigan stendlar, verstaklar, stollar, stellajlar, ko'tarish-transport qurilmalari va boshqa uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Detallarni yuvish va ish joylaridan ajratilgan maxsus vannalarda yoki yuvish qurilmalarida amalga oshiriladi. Ajralib chiquvchi bug'larni tashqariga chiqarib yuborish uchun yuvish vannalari va qurilmalarining ustiga tortuvchi ventilyasiya o'rnatiladi. Detallarni kerosinda yuvish harakatdagi yuvish stendlari yordamida amalga oshiriladi.

Yuvish mashinalarida kaustik yoki kalsiylangan sodaning issiq suvdagi eritmasi ishlatiladi. Bu eritma teriga yoki ko'zga tushganda kuydirishi mumkin. Shuning uchun eritma tayyorlashda va undan foydalanishda rezina qo'lqop, fartuk va etik kiyish, qattiq kaustikani maydalashda yoki konsentrasiyasi yuqori bo'lgan eritmani quyishda himoya ko'zoynaklarini taqish tavsiya etiladi. Aptechkada ishqorni neytrallaydigan ammoniy sulfat eritmasi bo'lishi kerak.

Remontda ishlatiladigan uskunalar nuqson siz bo'lishi kerak. Slesarlik boltasining urish qismi yorilmagan, tirlalmagan, ezilmagan, o'rta qismi bir oz ko'tarilgan bo'lishi, oval kesimli qattiq yog'ochdan tayyorlangan va mustahkam o'rnatilgan dastaga ega bo'lishi kerak.

Zubilo va kreysmeysellarning orqasi tekis, pachaqlanmagan va tilinmagan bo'lishi kerak. Zubiloning uzunligi 150 mm dan kam bo'lmasligi, ushlanadigan qismi esa 60—70

mm bo'lishi kerak. Zubilo va kreysmeysellarning tig'i 65—75° burchak hosil qilib charxlanishi, kesuvchi qismi to'g'ri yoki bir oz ko'tarilgan chizshush qilib ishlanishi kerak. Zubiloni toplashda uning kallagi toblamay qoldiriladi. Zubilo va kreysmeysellar bilan ishlaganda albatta himoya ko'zoynaklari taqish kerak. Egov va shaberlar bandaj halqalari bilan ta'minlangan va tekis silliq qilib ishlangan yog'och dastalarga mahkam o'tkazilgan bo'lishi talab qilinadi.

Gayka klyuchkalarining gayka va bolt kallagi o'lchamiga mos tushadiganlarini ishlatish zarur. Ishlarni bajarishda quyidagilar taqiplanadi: gayka klyuchini boshqa klyuchga yoki trubaga kirgizib tortish, uning ro'parasida turish, shuningdek, gaykalarni zubilo va bolg'a bilan bo'shatish; ish joyida metall parchalari va .kukunlarini to'g'ridan-to'g'ri qo'l bilan (qo'lqop kiymasdan) to'plash; mustahkam bo'limgan tirkaklardan foydalanish; mexanizmlar ishlab turganda (instruksiyada ko'zda tutilgan rostlash operasiyalaridan tashqari) ularni moylash, to'g'rakash va rostlash; qo'lda ishlatiladigan elektr uskunalar (drel, gaykovert va boshqalar) elektr xafsizligi talablariga to'la javob beradigan, ish joyida esa elektr o'tkazmaydigan qo'lqop va gilamchalar bo'lishi zarur.

Mashina va mexanizmlarni qismlarga ajratish va yig'ishda mehnatni yengillashtiruvchi, xavfsiz ishlash sharoitini yaratuvchi va mehnat unumdoorligining ortishiga yordam beruvchi turli xil syemniklar va moslamalarni ishlatish kerak. Ezilgan va singan rezbali, sterjeni qiyshaygan, bolti uzilgan va boishqa kamchiliklarga ega bo'lган syemniklardan foydalanmaslik kerak.

Parmalash stanoklarida ishlaganda shpindel, parma, ushlab turuvchi boltlar va ishlov berilayotgan detallar xavflidir. Ishchining aylanayotgan shpindelga boshini yaqin ushlab turishi ayniqsa xavfli. shpindel va parmani shaffof materiallardan yasalgan teleskopik truba bilan to'sish xavfsizlikni ta'minlovchi tadbirlardan biri hisoblanadi. Stanokda ishlaganda parma va ishlov beriladigan detalni mustahkam qilib mahkamlash kerak. Yomon mahkamlangan detal ish paytida katta kuch bilan otilib chiqishi va ishchini jarohatlashi mumkin. Parmani detalga asta-sekin botirish kerak, aks holda parma sinishi va jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

Metall parchalarini stanokdan ilmoq yoki cho'tka yordamida olib tashlash kerak.

Markazlashtiruvchi parma bilan ishlanganda parmalanadigan teshikdag'i metall parchalarini parma to'xtaganidan yoki uni ko'tarib qo'yilganidan keyingina olib tashlashga ruxsat etiladi. Stanokda qo'lqop bilan ishlash mumkin emas.

Jilvirlash va randalash stanoklarida jilvir tosh juda katta tezlik bilan aylanadi, shuning uchun undan kichik bir bo'lakchasining uzilishi va otilib chiqishi ham ancha katta jarohatlanishga olib kelishi mumkin. Yo'nish stanoklarining qo'shilishi to'ntarma ekran bilan bog'langan bo'lishi kerak. Ekran organik shishadan tayyorlanadi va quyruq-qo'shgich bilan jihozlanadi. Shuning uchun stanokni qo'shish faqat to'ntarma ekran tushirilganidan keyingina mumkin bo'ladi.

Jilvir toshni stanokka o'rnatishdan avval uni qoplab turgan materialdan tozalanib ko'zdan kechiriladi va biron-bir sterjenga o'rnatib yog'och bolg'acha bilan urib ko'rildi. Dirillagan ovoz eshitilsa, bunday tosh yorilgan bo'lib, uni stanokka o'rnatish mumkin emas.

Jilvir toshni ishlatish paytida uni qalinligi 4 mm dan kam bo'lмаган po'lat yoki bolg'alanuvchan cho'yandan yasalgan himoya kojuxi bilan to'siladi. To'siqni stanokka mustahkam qilib mahkamlanadi va u changni tortuvchi mahalliy moslamaga ega bo'ladi. To'siq detallari bir-biriga faqat payvandlab yoki parchinlab biriktiriladi, bu maqsadda kovsharlashdan foydalanish mumkin emas.

V. IQTISODIY KO'RSATGICHALAR

Iqtisodiy ko'rsatgichlar hisobi

1) Texnologik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda bir sentner mahsulot yetishtirish uchun mehnat sarfi.

$$H = \frac{H_{\text{aaiè}}}{G}; \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

bu yerda $\dot{I}_{\text{aaiè}}$ – hosilni yetishtirishda jami mehnat sarfi, *kishi soat G* – olinadigan jami hosil.

Paxta yetishtirishda:

Amalda

$$H_n = \frac{34500}{13500} = 2,55 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

Texnologik kartada asosida

$$H'_n = \frac{33002}{13080} = 2,52 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

G'alla yetishtirishda:

Amalda

$$H_{\tilde{A}} = \frac{15392}{19240} = 0,8 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

Texnologik kartada asosida

$$H'_{\tilde{A}} = \frac{12350,87}{18260} = 0,676 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

Poliz ekini (pamidor) yetishtirishda:

Amalda

$$H_{\tilde{A}} = \frac{298,2}{497} = 0,6 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

Texnologik kartada asosida

$$H'_{\tilde{A}} = \frac{225}{490} = 0,45 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

Meva yetishtirishda:

Amalda

$$H_{\tilde{A}} = \frac{3561,6}{11872} = 0,3 \frac{\hat{e}e\phi\hat{e} \ .\tilde{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

Texnologik kartada asosida

$$H'_{\hat{A}} = \frac{2660,4}{11521} = 0,23 \frac{\hat{e}\hat{e}\phi\hat{e} \cdot \hat{n}\hat{i}\hat{a}\hat{o}}{\ddot{O}}$$

2) Texnologik kartaga asosan bir sentner hosilni yetishtirish va tayyorlov punktiga topshirish uchun ketgan yoqilg'i sarfi.

$$D_{1\ddot{O}} = \frac{G_{\hat{e}}}{Q_{\alpha\hat{a}\hat{i}}} ; \frac{\ddot{e}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

bu yerda $G_{\hat{e}}$ – hosilni yetishtirish va tayyorlov punktiga topshirish uchun sarf bo'lgan yoqilg'i.
 $Q_{\alpha\hat{a}\hat{i}}$ – olinadigan jami hosil.

Paxta yetishtirishda;

Amalda

$$q_{1\ddot{O}\ddot{r}} = \frac{90450}{13500} = 6,7 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Texnologik kartaga asosan

$$q^1_{1\ddot{O}\ddot{r}} = \frac{86317}{13080} = 6,59 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

G'alla yetishtirishda;

Amalda

$$q_{1\ddot{O}\ddot{A}} = \frac{65418}{19240,6} = 3,4 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Texnologik kartaga asosan

$$q^1_{1\ddot{O}\ddot{A}} = \frac{58654}{18260} = 3,21 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Poliz ekini (pamidor) yetishtirishda:

Amalda

$$q_{1\ddot{O}\ddot{A}} = \frac{1143}{497} = 2,3 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Texnologik kartaga asosan

$$q^1_{1\ddot{O}\ddot{A}} = \frac{1074}{490} = 2,19 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Meva yetishtirishda:

Amalda

$$q_{1\ddot{O}\ddot{A}} = \frac{10800}{11872} = 0,91 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Texnologik kartaga asosan

$$q^1_{1\ddot{O}\ddot{A}} = \frac{10243}{11521} = 0,889 \frac{\ddot{e}\ddot{e}\ddot{o}\ddot{d}}{\ddot{o}\ddot{a}\ddot{i}\ddot{o}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{d}}$$

Yonilg'i moylash materiallari uchun xarajatlar.

$$C_{\hat{e}} = T_{\hat{e}} \cdot \ddot{O}_{\hat{e}}$$

bu yerda $T_{\hat{e}}$ -yoqilg'i sarfi, *litr*

$\ddot{O}_{\hat{e}}$ -bir litr yoqilg'i narxi, so'm

Dizel yoqilg'isi uchun xarajat

$$C_{\ddot{a}, \hat{e}} = 153059 \cdot 1900 = 290812100 \text{ so'm}$$

Benzin uchun xarajat.

$$\tilde{N}_{\ddot{a}\ddot{a}\dot{c}} = 4748 \cdot 1850 = 87838600 \text{ so'm}$$

Motor moyi uchun xarajat.

$$\tilde{N}_{\ddot{i}\ddot{e}} = 5665 \cdot 8000 = 45320000 \text{ so'm}$$

Solidol uchun xarajat.

$$\tilde{N}_{\ddot{n}\ddot{e}} = 120,24 \cdot 7000 = 841680 \text{ so'm}$$

Yurgizib yuborish dvigatelining benzini uchun xarajat.

$$\tilde{N}_{\ddot{d}\ddot{a}\dot{d}} = 152 \cdot 1850 = 281200 \text{ so'm}$$

Transmissiya moyi uchun xarajat.

$$\tilde{N}_{\ddot{o}\ddot{o}} = 1469,11 \cdot 7000 = 10283770 \text{ so'm}$$

Yolg'i moylash materiallari uchun jami xarajat.

$$\tilde{N}_x = \tilde{N}_{\ddot{a}, \hat{e}} + \tilde{N}_{\ddot{a}\ddot{a}\dot{c}} + \tilde{N}_{\ddot{i}\ddot{e}} + \tilde{N}_{\ddot{n}\ddot{e}} + \tilde{N}_{\ddot{d}\ddot{a}\dot{d}} + \tilde{N}_{\ddot{o}\ddot{o}} =$$

$$290812100 + 87838600 + 45320000 + 841680 + 281200 + 10283770 = 435377350; \text{ñóì}$$

Dahbed MMTPsida 2012 yilda texnalogik kartaga mos kelgan ishlarni bajarishda yoqig'i moylash materiallari uchun sarf bo'lgan xarajatlar 436025000 so'mni tashkil etgan.

Texnalogik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda ish haqi uchun ketgan xarajatlar, so'm

$$C_{\dot{e}\phi} = \dot{I} \cdot \tilde{N}_{\ddot{l}\ddot{n}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{o}}$$

bu yerda $\tilde{N}_{\ddot{l}\ddot{n}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{o}}$ – soatlik o'rtacha ish haqi

$$\text{VI razryad } \tilde{N}_{\ddot{l}\ddot{n}\ddot{i}\ddot{a}\ddot{o}} - 1900 \text{ so'm/soat}$$

Dahbed MMTPsida 2012 yilda texnalogik kartaga mos kelgan ishlarni bajarishda mehnat sarfi 48758 kishi soatni tashkil etgan.

$$C_{\dot{e}\phi} = 48758 \cdot 1900 = 92640000 \text{ so'm}$$

Texnalogik kartaga asosan ishlar amalga oshirilganda mehnat sarfi 48582,6 kishi.soatni tashkil etadi bu holda ish haqi uchun sarf bo'lgan xarajat.

$$C'_{\dot{e}\phi} = 48582,6 \cdot 1900 = 92306940 \text{ so'm}$$

Traktorlarga texnik servis xizmat ko'rsatish uchun ketgan xarajatlar.

Traktor bir soat ishlaganda TSXK uchun ajratiladigan pul.

$$C_{\dot{\partial}\ddot{\partial}\dot{E}, \dot{A}\dot{\partial}} = \frac{\ddot{O}_{\dot{\partial}\dot{\partial}} \cdot \dot{I}_{\dot{\partial}\dot{\partial}}}{100 \cdot \dot{O}_{\dot{\partial}}}; \quad \text{so'm/soat}$$

bu yerda $\dot{I}_{\dot{\partial}\dot{\partial}}$ – traktorga TSXK uchun ajratiladigan pul %

$\ddot{O}_{\dot{\partial}\dot{\partial}}$ – traktor tannarxi, so'm

$\dot{O}_{\dot{\partial}}$ – traktorga yillik nagruzka berish normasi, moto-soat

TTZ-60.11 traktor uchun $\dot{O}_{\dot{\partial}\dot{\partial}}$ – 36000000 so'm $H_1 - 22\%$ va $\dot{O}_{\dot{\partial}} - 1237$ moto-soat

$$\tilde{N}'_{\dot{\partial}\ddot{\partial}\dot{E}, \dot{A}\dot{\partial}} = \frac{36000000 \cdot 22}{100 \cdot 1237} = 6402,58 \text{ so'm/soat}$$

TTZ-60.11 traktorlariga TSXK uchun ajratiladigan pul.

$$C_{1, \dot{\partial}\ddot{\partial}\dot{E}, \dot{A}\dot{\partial}} = \tilde{N}'_{\dot{\partial}\ddot{\partial}\dot{E}, \dot{A}\dot{\partial}} \cdot \dot{O}_{\dot{e}\phi}$$

bu yerda $\dot{O}_{\dot{e}\phi}$ – texnalogik kartada ko'rsatilgan ishni bajarish uchun

tegishli traktorlarning jami ishlagan moto-soati.

TTZ-60.11 traktori 5 dona, $\dot{O}_{\dot{\epsilon}\phi} = 6894$ moto-soat

$$C_{1,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = 6402,58 \cdot 6894 = 44139386 \text{ so'm}$$

TTZ-80.11 traktori uchun $\dot{O}_{\dot{\alpha}\dot{\delta}} = 42000000$ so'm, $\dot{O}_{\dot{\epsilon}\phi} = 1420$ soat $H_1 = 22\%$

$$C' = \frac{42000000 \cdot 22}{100 \cdot 1420} = 6507 \text{ so'm/soat}$$

TTZ-80.11 traktori 6 dona bo'lib jami ishlagan $\dot{O}_{\dot{\epsilon}\phi} = 8068$ moto-soat

$$C_{2,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = 6507 \cdot 8068 = 530067,6 \text{ so'm/soat}$$

MTZ-80X traktori uchun $\dot{O}_{\dot{\alpha}\dot{\delta}} = 58000000$ so'm

$$C = \frac{58000000 \cdot 22}{100 \cdot 1800} = 7088,9 \text{ so'm/soat}$$

MTZ-80X traktorlari soni 3 ta jami ishlagan $\dot{O}_{\dot{\epsilon}\phi} = 3458$ moto-soat

$$C_{3,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon}} = 7088,9 \cdot 3458 = 24513416 \text{ so'm}$$

VT-150 traktori $\dot{O}_{\dot{\alpha}\dot{\delta}} = 76000000$ so'm $\dot{O}_{\dot{\delta}} = 1550$ motto-soat, $H = 22\%$

$$C'_{\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = \frac{76000000 \cdot 22}{1001 \cdot 1550} = 10787 \text{ so'm/soat}$$

Texnologik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarish uchun 1 dona VT-150 traktori talab etiladi.

Yil davomida traktorlar ishlagan $\dot{O}_{\dot{\epsilon}\phi} = 1836$ moto-soat.

$$C_{4,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = 10787 \cdot 1836 = 19804932 \text{ so'm}$$

T-4A-II traktori uchun $\dot{O}_{\dot{\alpha}\dot{\delta}} = 91000000$ so'm $T_{\dot{\delta}} = 1600$ moto-soat $H = 22\%$

$$\tilde{N}'_{\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = \frac{91000000 \cdot 22}{100 \cdot 1600} = 12512,5 \text{ so'm/soat}$$

Texnologik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda 1 dona T-4A-II traktori talab etiladi ishlagan $\dot{O}_{\dot{\epsilon}\phi} = 1207$ moto-soat

$$C_{5,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon}} = 12512,5 \cdot 1207 = 15102587$$

Texnologik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda barcha traktorlarga TSXK uchun ajratiladigan pul.

$$C_{\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = \tilde{N}_{1,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} + \tilde{N}_{2,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} + \tilde{N}_{3,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} + \tilde{N}_{4,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} + \tilde{N}_{5,\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}}$$

$$\tilde{N}_{\dot{\delta}\dot{\delta}\dot{\epsilon},\dot{\epsilon}\dot{\delta}} = 44139386 + 530068 + 24513416 + 19804932 + 15102587 = 104090380 \text{ so'm}$$

Dahbed MMTP sida ushbu traktorlarga TSXK uchun 2011 yilda 104185000 so'm xarajat qilgan.

Traktorlarni kapital ta'mirlash uchun xarajatlar.

$$C_{\dot{\delta}\dot{\delta}} = \frac{\dot{O}_{\dot{\alpha}\dot{\delta}} \cdot \dot{I}_{\dot{\epsilon}\dot{\delta}}}{100 \cdot \dot{O}_{\dot{\delta}}} \cdot \dot{O}_{\dot{\epsilon}\dot{\epsilon}\dot{\delta}}; \text{ so'm}$$

bu yerda $\dot{O}_{\dot{\alpha}\dot{\delta}} =$ traktorning tannarxi, so'm

$\dot{I}_{\dot{\epsilon}\dot{\delta}} =$ kapital ta'mir uchun traktor tannarxiga nisbatan

Mablag' ajratish normasi

$\dot{O}_{\dot{\delta}} =$ yillik nagruzka berish normasi, soat

$\hat{O}_{\text{texnologik}}$ = texnalogik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda tegishli traktorning jami ishlagan moto-soat

TTZ-60.11 traktori uchun

$$C_{1\hat{E}\hat{O}} = \frac{36000000 \cdot 5}{100 \cdot 1237} \cdot 6894 = 10031688 \text{ so'm}$$

TTZ-80.11 traktori uchun

$$C_{2.2\hat{E}\hat{O}} = \frac{42000000 \cdot 4}{100 \cdot 1400} \cdot 8068 = 9681600 \text{ so'm}$$

MTZ-80X traktori uchun

$$C_3 = \frac{58000000 \cdot 4}{100 \cdot 1800} \cdot 3458 = 4456977 \text{ so'm}$$

VT-150 traktori uchun

$$C_4 = \frac{76000000 \cdot 4}{100 \cdot 1550} \cdot 1836 = 36009288 \text{ so'm}$$

T-4A-II traktori uchun

$$C_5 = \frac{91000000 \cdot 6,5}{100 \cdot 1600} \cdot 1207 = 4462128 \text{ so'm}$$

Txnalogik kartada ko'rsatilgan ishlarni bajarishda traktorlarni kapital ta'mirlash uchun ketadigan xarajatlar.

$$\begin{aligned} C_{\hat{E}\hat{O}} &= C_{1\hat{E}\hat{O}} + C_{2\hat{E}\hat{O}} + C_{3\hat{E}\hat{O}} + C_{4\hat{E}\hat{O}} + C_{5\hat{E}\hat{O}} = \\ &10031688 + 9681600 + 4456977 + 36009288 + 4462128 = 64641679 \text{ so'm} \end{aligned}$$

2011yilda «Dahbed» fermerlar uyushmasida qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish va yig'ishtirib olishda traktorlarni kapital ta'mirlash uchun ketgan xarajat. $C_{\hat{E}\hat{O}} = 64644000$ so'm.

Iqtisodiy ko'rsatgichlar.

11-jadval

Nº	Ko'rsatgichlar nomi	MMTP xududida amalda	Tanlangan MTP tarkibiga asosan, so'm	Farqi
1	Yoqilg'i, moylash materiallari xarajati	436025000	435377350	647650

2	Ish haqi uchun xarajat	92640000	92306940	333060
3	Traktorlarga TSXK uchun xarajat	104185000	104090380	94620
4	Traktorlarni kapital ta'mirlash uchun xarajat	64644000	64641679	2321
	Jami	697494000	696416349	1077651

Demak Dahbed MMTP sida paxta va g'alla yetishtirib yig'ishtrib olishda texnalogik kartaga asosan mashina-traktor parki tarkibi tanlab olinib texnalogik kartada ko'rsatilgan ishlar amalga oshirilsa tejladigan mablag' 49399224 so'mni tashkil etar ekan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizda paxta va g'alla yetishtirib ularning hosilini yig'ishtirib olishda yetishtirilgan maxsulotning tannarxini eng kam bo'lishiga erishish dolzarb masaladir.

Bitiruv malakaviy ishida Samarqand viloyati Oqdaryo tumani "Dahbed" fermerlar uyushmasi xududida tegishli ekinlarni yetishtirish va yig'ishtirib olishda xarajatlarni eng

kam bo'lishiga erishish uchun neft maxsulotlarig bo'lgan talabni aniqlash ishi amalga oshirilgan.

Mahsulot tannarxini kam bo'lishiga erishishning asosiy omillaridan biri foydalaniladigan texnikalarga sarf bo'ladigan xarajatlarni kamaytirishdir.

Bu xarajatlarni kamaytirish yo'llaridan biri yoqilg'i sarfi kam, ish unumдорligi yuqori va tannarxi arzon bo'lgan texnikalardan foydalangan holda mashina traktor parkini maqbul tarkibini aniqlashdir.

Operasining texnologik kartada ko'rsatilgan tegishli jarayonlar agrotexnik muddatlarda bajarilishini ta'minlash. Buning uchun yoqilg'i va moylash materiallarining zahirasini oldindan teyyorlash, bundan tashqari, xo'jalikning mashina-traktor parkidan foydalanish samaradorligini oshirish, mashina-traktor agregatlari ishining smenaligini yaxshilash, mexanizatorlar mehnatini tashkil etish formalari va usullarini takomillashtirish, traktorlar va terim texnikasini guruxlab ishlatishdan keng foydalanish, kompleks terim-transport otryadlari yaratish va undan foydalanish operativligini ko'tarish, xo'jalik ichida aloqa va dispetcherlik xizmatini joriy etish, mashina-traktor parki ishini planlashtirish va hisobga olish usullarini takomillashtirish zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz "Dahbed" MMTP si xududida tegishli ekinlarni yetishtirish va yig'ishtirib olishda xarajatlarni eng kam bo'lishiga erishish uchun mashina traktor parkining eng maqbul tarkibini aniqlashda namunaviy texnologik kartadan foydalangan holda operasining texnologik karta tuzib, u asosda har bir rusumdagagi traktor, avtomobil va qishloq xo'jalik mashinalari uchun mashinalardan foydalanish grafigi qurildi. TTZ-60.11, TTZ-80.11, MTZ-80X traktorlari uchun mashinalardan foydalanish grafigi Bitiruv malakaviy ishining birinchi chizma varag'ida keltirilgan.

Mashinalardan foydalanish grafigida operasining texnologik kartada ko'rsatilgan ishlarni agrotexnik muddatlarda amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tegishli rusumdagagi traktor, soni va ularga texnik servis xizmat qo'rsatishning turlari keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi chizma varag'ida esa esa yil davomida texnologik kartada keltirilgan ishlarni bajarish uchun yoqilg'i bilan ishlaydigan traktor, avtomobil va qishloq xo'jalik mashinalarining har birining rusumi, soni va yoqilg'i moylash materiallarining turlar bo'yicha miqdori va oylar bo'yicha yoqilg'i shaxobchasiga keltirilishi zarur bo'lgan yoqilg'i mikdori bitiruv malakaviy ishining ikkinchi chizma varag'idagi jadvalda keltirilgan

Mashina rusumi	Soni, dona	Yoqilg'i sarfi, litr				
		Yoqilg'i	Motor moyi	Transmissiya moyi	Solidol	Benzin
KEYS-2166	1	7213	17,02	14,43	43,28	-
T-4A-II	1	15077	618,1	135,7	3	150,8
VT-150	1	39470	1420,9	157,9	15,8	-
TTZ-80-11	6	42407	1738,6	466,5	16,96	-
TTZ-60-11	5	27252	953,82	408,8	16,33	-
E-304V	1	116,4	4	1,28	0,07	1,2
ZIL-4331	1	4748	28,9	47,5	11,87	
MTZ-80X	3	21552	83,6	237	12,93	-
jami	-	157807	566,94	1469,11	120,24	152

8. Konstruktiv qismda esa qator orasidagi kessaklarni maydalash moslamasining umumiy ko'rinishi, umumiy o'lchami Bitiruv malakaviy ishining 4-chima varag'ida keltirilgan. Ushbu moslama detallarining umumiy ko'rinishi, o'lchamlari hamda texnik talablar Bitiruv malakaviy ishining keyingi chima varaqlarida keltirilgan.

9.Oqdaryo tumani «Dahbed» ММТР sida tegishli maxsulotlarni yetishtirib, yig'ishtirib olishda talab etiladigan traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik mashinalarining rusumi va soni quyidagicha bo'lar ekan

17-jadval

№	Тракторлар русуми	Талаб этилади дона	Мавжуд, дона	Харид қилиш лозим, дона
1	ТТЗ-60. 11	5	4	1
2	ТТЗ-80. 11	6	5	1
3	МТЗ-80Х	3	5	-
4	ВТ-150	1	1	-
5	Т-4А-II	1	1	-
6	Т28Х4М	-	2	-
7	МХ-135	-	1	-
Автомобил	ЗИЛ-4331	1	-	1
	ЗИЛ-4331	2	-	-
	Кишлоқ хўжалик машинаси			
	ПН-4-35	1	1	-
1	ПД-3-35	1	-	1
2	ПН-4-35	1	1	-
3	БЗТС-1	24	30	-
4	ЧКУ-4А	1	1	-
5	ПГХ-0,5	2	1	1
6	КЗУ-0,3	1	1	
7	РОУ-6	4	2	2
8	РМГ-0,7	2	2	-
9	ОВХ-600	3	2	1
10	ГН-4А	1	1	-
11	2ПТС-4-793	9	8	1
12	ГХ-4А	1	1	-
13	ППА-3,1	1	-	1
14	МВ-6А	1	-	1
15	СМХ-4	6	6	-
16	МВХ-5,4	1	-	1
17	КХУ-4	9	9	
18	КБН-0,35	1	-	1
19	КВ-3,6А	1	2	-
20	СЗ-3,6А	2	-	2
21	Булдозер	1	1	-

Узг	Варак	№ хужожат	Имзо	Сана	Варак

Bitiruv malakaviy ishining oxirgi bo'limida Samarqand viloyati Oqdaryo tumani "Dahbed" MMTP si xududida paxta, g'alla,sabzavot, meva, pilla yetishtirish va yig'ishtirib olishda MTP ning tarkibi bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan hisoblashlar asosida tanlab olingandagi yillik iqtisodiy ko'rsatgichlar hisoblangan.

Agar Dahbed MMTP sida paxta va g'alla yetishtirib yig'ishtrib olishda texnalogik kartaga asosan mashina-traktor parki tarkibi tanlab olinib texnalogik kartada ko'rsatilgan ishlar amalga oshirilsa tejadaligan mablag' 1077651 so'mni tashkil etar ekan.

Takliflar:

1. Dahbed MMTP sida paxta va g'alla yetishtirib yig'ishtrib olishda texnalogik kartaga ko'rsatilgan tuproqqa ishlov berish ishlar agrotexnik muddatlarda, tuproq namligi normal bo'lganda o'tkazilishi, hosilni yeg'ishtirib olish ishlari ham o'z vaqtida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.
2. Mashina traktor parkining tarkibi 12-javalda keltirilgan holda tanlanishi lozim.
3. Yoqilg'i-moylash materiallari, urug'lar, o'g'itlar yetarli darajada jamg'arilib o'z vaqtida dalaga yetkazilishi va mavsum davrlarida ishchilarning dalada ovqatlanishini tashkil qilish shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. «2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari»ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Halq so'zi» gazetasi 2012 yil.
2. I.A.Karimov. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». Toshkent 2011 yil
3. I.A.Karimov «Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish olyi saodatdir» Toshkent 2007 yil.
4. Samarqand viloyati Oqdaryo tumani "Dahbed" MMTP si xududida hosilni yetishtirib davlvtga topshirilganligi haqidagi 2008-2011 yillarning yakuniy hisoboti.
5. 2011-2015 yilliarda O'zbekiston Respublikasi xududida Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish va yitg'itirib olish foydalanish uchun Naunaviy texnologik karta. Toshkent. 2011 yil
- 6.V.A Alliluyev i dr "Texnicheskaya eksplutasiya mashinno traktornogo parka" Moskva VO Agropromizdat 1991yil
- 7.E.P Babenka, Yu.A Zuyev "Spravochnik po ekspluatasii mashinno traktornogo parka" M.Agroprmizdat 1991 yil
8. Yu.N Naumov "Mashina traktor parkidan foydalanish" Toshkent "Mehnat" 1985 yil.
9. A. Jaxongmrov va boshqalar «MTPF fanidan kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy tavsyanoma» "Samarqand "2009 yil.
- 10.O'Ikramov, A.Ergashev.M.Sablikov "Traktorlarni ishlatish va ta'mirlash asoslari" Toshkent "O'qituvchi" 1995 yil.

11. "Traktor TTZ- 100K-10/11.Texnicheskoye opisaniye,instruksiya po ekspluatasiya i texnicheskому obslujivaniyu" Toshkent 2001 yil.

12.P.I Orlov "Osnovы konustruirovaniye"

Moskva "Mashinostroyeniye" 1998 yil.

13.A.M Muxammedov, S.D Ziyayev va boshqalar "Tabiat muxofazasi va ekalogiya" Toshkent "O'qituvchi" 1991 yil.

14.A.N Ustinov, A.P Ishakov, P.M Mirzaxmedov "Yosh mexanizator uchun paxta yetishtirish va terishga oid spravochnik" Toshkent "O'qituvchi" 1992 yil.

15. Saytlar. WWW. EMTP ru

WWW. Traktor. ru

WWW. avto. ru

Format	Zona	Pozisiya	BELGILANISHI	NOMLANISHI	Soni	Eslatma
			БМИ001 001	Планка	1	СТ-6 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 002	Тишли пичоқни тутувчи втулка	1	СТ-6 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 003	Бармоқ	1	СТ-20 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 004	Күндаланг чеклагич пластина	1	СТ-6 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 005	Қулф (поводок)	1	СТ-6 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 006	Ташқи втулка	1	СТ-6 ГОСТ1050-74
			БМИ001 007	Марказий втулка	1	СТ-6 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 008	Олдинги тишли пичоқ	1	СТ-20 ГОСТ1050-74
			БМИ 001 009	Кетинги тишли пичоқ	1	СТ-20 ГОСТ1050-74

Трактор, автомобил ва қишлоқ хұжалик машиналарининг хар бир русуми, сони ва ёқилғи мойлаш материалларининг турлар бүйича миқдори

Mashina rusumi	Soni, dona	Yoqilg'i sarfi, litr				
		Yoqilg'i	Motor moyi	Transmissiya moyi	Solidol	Benzin
KEYS-2166	1	7213	17,02	14,43	43,28	-
T-4A-II	1	15077	618,1	135,7	3	150,8
VT-150	1	39470	1420,9	157,9	15,8	-
TTZ-80-11	6	42407	1738,6	466,5	16,96	-
TTZ-60-11	5	27252	953,82	408,8	16,33	-
E-304V	1	116,4	4	1,28	0,07	1,2
ZIL-4331	1	4748	28,9	47,5	11,87	
MTZ-80X	3	21552	83,6	237	12,93	-
jami	-	157807	566,94	1469,11	120,24	152

«Даҳбед» фермерлар уюшмаси худудида кишлоқ хўжалик махсулотлари етиштириш ва йиғишириб олиш учун календар ойлар бўйича худуд ёқилғи шахобчасига етказиб келиниши талаб этиладиган ёқилғи микдори

etiladigan dizel yoqilg'isi, litr	2274	6432	5626	8355	16804	23385	31567	10997	9033	10702	21249	6635	153059
Benzin	-	-	-	-	-	2374	2374	-	-	-	-	-	4748

Ushbu jadvalda keltiilgan yoqilg'i zahira tarzda har bir oy uchun oldindan ya'ni oy boshigacha xududning yoqilg'i shaxobchasiga keltirilishi shart

ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТГИЧЛАР

№	Кўрсатгичлар номи	ММТП худудида амалда	Танланган МТП таркибига асосан, сўм	Фарқи
1	Ёқилғи, мойлаш материаллари харажати	267756130	265714390	2041745
2	Иш ҳақи учун харажат	91276400	89528800	1747600
3	Тракторларга ТХК ва ЖТ учун харажат	173150000	172118132	1031868
4	Тракторларни капитал таъмирлаш учун харажат	33721000	33602989	118011
	Жами	565903530	560964306	4939224

Демак Бобир ММТП сида пахта ва ғалла етиштириб йиғиштриб олишда технологик картага асосан машина-трактор парки таркиби танлаб олиниб технологик картада кўрсатилган ишлар амалга оширилса тежаладиган маблағ 4939224 сўмни ташкил этар экан